

*Yanakahon keldi,
Sizni sonogylar...*

*Esse va
tirik she'rlar*

8/12
Н-13

Nurali QOBUL,
Hulkar OLIMJONOVA

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока
выдач

22.10.22

Количество предыдущих
выдач

- 1307
Yana bahon keldi
Sizni so'roq qil...

Ecce va lirik
she'rlar



ABDOROT RESURS MARKAZI
ДАУЛАТ РЕСОУРС МАРКАЗИ
TOSHKENT VILAYETI CHINCHIG
ОЛЫ ОРДА НАЦИОНАЛЫК ТАБИАТА ЗАРАЛЫ
1-ПЛАН
18 - 2018
Toshkent

UO'K: 817.544.133-6 (9N)
KBK: 76.188.6

N-13

Nurali Qobul

Yana bahor keldi Sizni so'roqlab: esse va lirik she'rilar/ N.Qobul.
H.Olimjonova – T.: "Tafakkur", 2015. 128 bet.

UO'K: 817.544.133-6 (9N)
KBK: 76.188.6

Xalqimizning sharaflari farzandi va suyukli shoirasi, mehr-u muhabbat hamda sadiqat kuychisi, oqibat malikasi Zulfiyaxonim (Zulfiya Isroilova) tavalludiga yuz yildan oshdi. Yillar o'tsa-da, shoir o'z hayoti va ijodi bilan abadiyat osmonida yorqin porlab turadi. Zulfiya haqida qanchadan-qancha xoitralar, esselar, ocherklar, she'rilar bitildi. Har birida shoiramizning hayot varaqlarining yangi sasları tarix qa'ridan eshitilaveradi.

Ushbu kitobda ulug' shoiramiz haqidagi esensi o'qisiz, shuningdek, sara she'rleridan ham namunalar siz – aziz kitobxonlarga armug'on etilgan.

Taqrizchi: Suwon MEJI – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Nashriga tayyorlovi: Nabijon HOSHIMOV – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

ISBN: 978-9943-24-158-9

© "TAFAKKUR" nashriyoti, 2018

E'ZOZLAR, ARDOG'LAR UCHUN TASHAKKUR!



Bu oqshom porillar dil nuringizda,
Diydor baxti nasib yana Siz bilan.
Turibman, azizlar, huzuringizda,
Hamon o'tlig' ko'ngil, yorug' yuz bilan.

Hamon mulkimgagi siymu zarim – she'r,
Sochimda, chehramda yillardan nishon.
Sajdagohim tanho Vatan, Ona yer,
Orzularim karvon, sarbonim – ishonch.

Hamon ota-onam, ikki jahonim,
Aziz yodi aro shikasta, butman,
Ishqim – alangadir, qordir hijronim,
Sakson yil lovillab so'Imagan o'tman.

Ikkita ko'zinga ikki qorachig' –
Munism Hulkarim, alpin Omonim.
Shirin nabiralar hayotdan tortig',
Har biri joniga payvanddir jonim.

Nomlari, yodlari payg'ambar monand,
Hazrat ustozlarim – teran iidizlar,
Men undan jon olib ko'kargan daraxt,
Mevasi – qalbimdan otilgan so'zlar.

Hikmatlari bag'rida dur, marvaridim
Ajoddalarim menga iftixor, g'urur.
Shu mayjlardan tomgan nuqra umidim,
Shoira qizlarim baxt etgan surur.

Bu nazm bog'iga kirolmash xazon,
Bizni mahv etolmas zavol lashkari,
Men ketsam, mung'aymas umrim hech qachon,
Bu bog'lar – bir bog'lar bo'ladi hali...

Hamon e'tiqodim – haqiqat, haqdir,
So'zlayman, yuzimni tutib Ka'baga,
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o'tadi ruhim abadga.

E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur,
Asli siz oftobim, men ziyoisman.
Tonglaringiz kulsin dorilonon, hur,
Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiyaman!

ZULFIYANING HAYOTI VA IJODI

(1915–1996)



Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentda hunarmand deg'ez oilasida tug'ilgan. Otasi zahmatkash temirchi edi, onni Xadicha opa esa juda ko'p qo'shiq, ertak, afsona va dostonlarni bilar va bolalarga ayтиб berardi. Zulfiya 1928-yilda boshlang'ich maktabni tugallab, Toshkent xotin-qizlar putingogika bilim yurtiga o'qishga kirdi. Ana shu yillardan boshlab, uning adabiyotga bo'lgan qiziqishi kuchaydi. Navoiy, Rushkin, Abdulla Qodiriy, G'ayratiy asarlarini, Uyg'un va Hamid Olimjon kabi yozuvchi-shoirlarning ijodini qiziqib kuzadi. O'qish va o'rganish o'z navbatida uning qo'liga qilib olishga ilhomlantirdi. Shu tariqa badiiy iste'dodi im moyon bo'la boshladi.

1930-yildan boshlab "Ishchi", "Turkiston" gazetalari, "Rolalar", "Yangi yo'l" jurnallarida yosh shoiraning dastlabki she'rlari ko'rinadi. 1932-yilda o'n sakkiz yoshli shoiraning binchi she'rlar to'plami – "Hayot varaqlari" bosilib chiqadi. Zulfiya domo izlamishda, o'qishda o'z ijodini yanada serqirra bo'lishi uchun siddiqiidan harakat qildi.

1933-yilda Nizomy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida tahlil oldi. 1935–1938-yillarda esa A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot ilmiy-tekshirish institutida aspiranturada o'qiydi.

1938–1940-yillarda Respublika bolalar va yoshlar adabiyoti nashriyotida muharrir bo'lib ishaydi. Zulfiyaning ilk she'rlari o'zining hayotbaxsh ruhi bilan kitobxonlarni o'ziga jalg etdi.

U ikkinchi jahon urushi arafasida taniqli shoirlar qatoridan o'rin olgan edi. Zulfiya urushdan keyingi yillarda tinch ijodiy mehnatda kishilarning matonati va qahramonligining yuksak namunalarini ko'rsatayotgan zamondoshlari haqida, tinchlik va do'stlik haqida kitobxonlarga manzur bo'lgan ajoyib she'rlar yaratdi. Shoiraning "Hulkar" (1947), "Men tongni kuylayman" (1950), "Dugonalar bilan subbat" (1953) kabi to'plamlaridagi she'rlarida o'zbek qizi – Zulfiyaning ovozi – ona qalbini, ayol nazokatini, inson orzusini kuylagan otashin she'rlari faqat O'zbekistondagina emas, butun Osiyo va Afrika mamlakatlariida ham kitobxonlar diqqatini jalg qildi.

O'zbekiston xalq shoirasи, taniqli jamoat va davlat arbobi – Zulfiya, xorijiy mamlakat taraqqiyatining yozuvchilari va davlat arboblarining mehmoni sifatida juda ko'p mamlakatlarda bo'lgan edi. O'zbek-hind do'stligi, O'zbekiston Jamiyatining prezidenti sifatida o'zining butun ijodi va ijtimoiy fəoliyati bilan tinchlik ishiga, xalqlarning do'stligi va birodarligiga katta hissa qo'shgan.

Zulfiya asarlari ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya "Xalqaro Javoharlal Neru" (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati, shuningdek, Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lgan.

Zulfiya A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.A.Nekrasov, M.Voqif, L.Ukrainka, M.Dilboziy, S.Kaputikyan, E.Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, E.Bagryana va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Zulfiyaning qudratli ovozi, mayin va mehr to'la qo'shiqlari, o'zbek xotin-qizlarining baxtiyor taqdirini, tinchlikka va ozod mehnatga tashna insonlarning orzularini ifodalagan haroratlari she'rlari hozirgi kunda ham baland yangramoqda.

O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi. Toshkentdagi maydonlardan biriga Zulfiya haykali o'rnatildi, ko'chalardan biriga esa Zulfiya nomi berildi.

Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek, Zulfiya ijodi – millionlab kishilarga, muhabbat va sadoqatdan saboq bermodqa, sadoqat va vafo ramzi bo'lib yashamoqda.

Kamalak yetti rangda yetmish xil jilolani, barchani maftun qilgandek, Zulfiya tongning o'ziday rost va yorqin haqiqatga yo'g'rilgan poeziyasi bilan "Kechir, qoldim g'aflatda", "Ne baloga etding mubtalo", "Bahor keldi seni so'roqlab", "Xotiram siniqlari" kabi she'rlarida sadoqat va vafo tuyg'usini – insoniylikning, komillikning bosh mezoni darajasiga ko'targan.

U bolalar va o'smirilar uchun ham ko'plab to'plamlar nashr ettilgan. Atoqli shoir 81 yoshida, 1996-yil avgustda vafot etdi.



Hijroning galbimda, sozing qo 'limda,
Hayotni kaptayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunlar yodimda,
Men hayot ekamman, hayotsan sen ham.

Zulfiya

SADOQAT MULKINING MALIKASI

yoxud

Hamid Olimjonning mangu qo'shig'i

Esse

Yaqin kechmishimizning shunday shaxsiyatları borki, ular haqida qo'iga qalam olib, shunchaki yozib keta olmaysan.

Pushkin she'ri hali mag'rur jaranglar.

Lermontov charaqlar nazm osmonida,

Shoir bo'lish qiyin, shoir bo'lish og'ir,

Bunday buyuklarining kahkashonida

deganlarida qadrlı Abdulla aka ikki karra haq edilar.

Harf tanib, kitobga e'tiqod qo'ygamiz ondan boshlab, Hamid Olimjon va Zulfiya nomlari tasavvurimizda "Tohir va Zuhra", "Layli va Majnun", Oygul bilan Baxtiyor kabi afsonaviy tarzda jonlanardi.

Bu asona, bu doston, biz ko'rib, his etib turgan, haqiqatga aylangan ertak edi.

Butun o'ika, xalq u sevib va yonib kuylagan ko'm-ko'k bo'zqirlar, Hamid Olimjon she'rlari, bu she'rlarga bitilgan kuy va qo'shiqlar bilan hamohang.

Adabiyot kitobimizdagi "O'zbekiston", "Oygul bilan Baxtiyor", Zulfianing "Lobar qizlarga" she'rinib bir necha dars oldin yoddan aytib berib, a'lo baho olganim kechagidek esimda, "Har dami-yu, har on esimda". Pushkin, Lermontov, Blok va Yesenin kabi juda yosh

chog'ida o'zining favqulorra iste'dodini namoyish etgan Hamid Olimjon davrning, o'sha zamон va makonning timsoli ramzi, kishilarning orzu-armoni edi.

Undagi yuksak insonyilik iste'dodi shoirlik qobiliyati iia jozibali shaxsiyatga aylangan edi.

Bu kishilik tarixida, ayniqsa, adabiyot va san'at ahli orasida kamdan kam uchraydigan noyob hodisadir. Juda oz sonli ijodkorlarning shaxsiy, insonyi sifatlari taroziga qo'yilganda iste'dodi bilan teng keladi. Buyuklik, insonyilik iste'dodining, haqiqiy ijodkorlik soloziyati bilan tutashgan, uyg'unlashgan nuqtasidan boshlanadi.

Shunday shaxslar bo'ladiki, barcha birek sevib, birdek ardoqlab, birdek boshiga ko'taradi. Vaqt zamoni kelib, bayraq qiladi. Betakror shaxsiyat, ulusimizning shon-shavkatli, sharaflı farzandi va san'atkori Hamid Olimjon ana shunday inson edi.

Yetmishinchı yıllar boshida Qo'rg'onda Hamid Olimjon uy muzeeyining ochilishi Jizzax adabiy muhitida katta voqeа bo'igan edi. Butun Jizzax bayram tusini olgan, Zulfiya va Komil Yashin boshchiliigidä butun mamlakatning atoqli adiblari tashrif buyurgan edilar.

Muzey, Hamid Olimjon qo'llagan ashyolar, uning ilk asarlari namunalari, noyob fotosuratlar bilan to'la bo'lib, adabiyot ixlosmandlari, qolaversa butun Jizzax xalqida so'z ila tasvirlab bo'lmas taassurot uyg'otgan edi.

Men bu paytda viloyat hokimiyyatida matbuot bo'yicha ins-truktur bo'lib, bevosita shu ishlar bilan shug'ullanar edim. Rahbarimiz Sodiq Ahmatovich Nishonov bilan uyma-uy kezib eksponentlar to'plaganmiz.

Buyuk shaxslar ijodi va faoliyatini kitoblarda o'qib o'rganmoq naqadar maroqli bo'iganidek, ular ulg'ayib voyaga yetgan zaminda o'sib ulg'aymoq, kishiga ayricha zavq va ilhom baxsh etajagini o'shanda his etgannan.

Zotan inson qalbida oliyadolat, muqaddas vatan va

millatga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat uning bolaligida, yoshlilik va o'spirinlik nighi ilo o'z yurtining kechmish tarixi, tabiat va shu makonda yashagan tarixiy shaxslaru yodgorliklar ta'sirida shakllanadi.

Biz Hamid Olimjon tug'ilgan va voyaga yetgan zaminda yashab o'qiyotganimizdan, bir paytalar ulug' zot kezgan kengliklarda nafas olayotganimizdan faxlanar edik.

Hamid Olimjon hayotining so'ngi daqiqasiga qadar vatanim va xalqim deb yashadi.

O'sha fojali voqeа yuz bergen kun u do'stlari Uyg'un va Chustiy bilan yuk mashinasida Do'rmondagи Yozuvchilar ijod uyidan shaharga qaytadi. Uyushma raisi bo'lgan shoir haydovchining yonida, kabinada o'trib kelardi.

... Yo'l bo'yida bolali ayol qo'l ko'tardi...

Kim bo'lmасин, shohu gadomi, insonlarga g'oyat diqqat-e'tiborli, ular dardi hasrati, g'ami-tashvishini to'ppa-to'g'ri yuragiga qabul qiladigan, atrofdagilar qalbining urishiga hassoslik bilan boquvchi ijodkor darhol mashnani to'xtatib,ayolni kabinaga o'tqazib, o'zi kuzovga chiqadi...

So'ngra butun o'lkani, u sevib kuylagan yashil vodiylar, ko'm-ko'k dalalar, yuksak tog'laru bog'lamni larzaga keltirilgan foja sodir bo'ladı.

U kabinada o'trib kelaverishi ham mumkin edi...

Biroq u bunday qila olmas edi.

Shunday qilganida u qo'shiq kabi mangу, vatan kabi suyukli, ona tuproq kabi aziz Hamid Olimjon bo'lmасed edi.

Kimlar jon berdi, kimlar nutq otdi shu vatan uchun deganlaridek, asl qahramonlik, haqiqiy millatsevarlik, ulus uchun o'zini fidо eta bilmоqliк, ana shunday favqulotda holatlarda, favqulotda jasur va botir, mard va sharaifi kishilar shaxsida namoyon bo'ladı.

O'zini xalqiga baxshida eta bildigan kishilar bu haqida usoq o'ylab, mushohada etib o'urmайдар.

Shu bois ham o'llimidan aval o'lmoqni bilganlargina o'llimidan so'ng yashaydilar.

O'llinga hozir bo'lganlar, o'llinga hozir bo'lmaganlar ustidan g'alaba qozonadilar.

Kechmishdan shunday bo'lib kelgan.

Boburshoh kabi dillarda taxt qurgan ko'ngil odamlari davlatu sultanat taxtida uzoq o'tira olmaydilar. Yoxud Alisher Navoiy hazratlari Temurxon naslidan Sulton Ulug'bek, hech jahon ko'rmadi Sulton aningdek, deya iftixorla qayd etgани kabi ulug' va tengsiz bir shaxsiyat o'lsada, xiyonatu razolat, padarkushligu millatfuruslik qarshisida ojiz turumga tushib, yengiladilar.

Faqat shunday fidokor shaxsiyatargina zamонлар kechib xalqining va yurtining shonu sharfi, faxri iftixoriga aylanadilar.

Haqiqatni aytilish mumkin bo'lmagan odamga hech qachon to'g'ri gapni gapirma deydiilar.

Bu g'oyat dono o'gitga amal qilmoq oqil va fozi larning fazilatidir. Sodda gapiradi dono tinglaydi degandek, og'ziga egalik qilolmagan kishi hech bir yeriga hokim bo'la olmaydi.

Ildizi adolat bo'lgan adabiyotda esa faqat to'g'ri gap va katta haqiqat aytildi va yozildi. Shundagina u san'at darajasiga ko'tariladi, insonlarni hayratga soladi va yashab qoladi. Adabiyot degani adolat demakdir.

Zulm va yolg'oning shami tongga qadar yonadi degandek, soxtalik qorishgan neki bor o'tkinchidir.

Hamid Olimjon ana shu e'tiqodga amal qilardi.

Sharoit taqozosiga ko'ra Do'rmon bog'ida anchа muddat yashashimga to'g'ri keldi. Zulfiya opa bahor, yoz va kuz oyları bog'dagi Hamid Olimjon oilasi uchun qurilgan uyda yashardilar. Gohida ishga birga ketar yoki birga qaytardik.

— O'sha mudish voqeа shu yerdа sodir bo'lgan, Nuralijon ko'chasingning onalar va bolalar shifoxonasi joylashgan (epalikdan inishdagi qiyalikni ko'rsatish).

Har o'lganda so'ramoqchi bo'lardimu, biroq u kishining dardli, hasratli va armonli ko'ngillariga ozor bermaslik uchun jur'at eta olmasdim.

— To'xtaylik, — dedim beixtiyor.

To'xtab mashinadan tushdik. Yo'l bo'yida sassiz, sadosiz bir-birimiza suyanib, ko'z yoshi to'kdik. Va ming bir g'am yuki ila Do'monga yetib keldik.

Bu yorug' ochunda kamdan kam erkagu ayolning yulduzi to'g'ri keladi. Yulduzi to'g'ri kelganlarni esa egasi bir tomonidan qisadi der edilar eman. Bu ikki ulug' shaxsiyat qismatini mushohada etar ekanman, enamning shu so'zlarini yodimga tushaveradi.

Do'rmon bog'larida yolg'iz, ichim to'kik, dilim so'kik, armonu hasratla, og'ir qadamla kezar ekanman, bu yo'laklarda, bu qadrdon daraxtlar soyasida aziz va mehribon Zulfiya opa, zakiy Asqad aka, Izzat Sulton, Sarvar Azimov, otadoshim Muhammad Yusuf bilan birga kechgan mahzun, samimiy va takrorlanmas diyordorlashuvlarni, subbatlarimizni estayman. Haqiqiy toza qalbl inson va ijodkor Yo'ldosh Sulaymon ko'chatini Farg'onadan keltirib barpo etgan, Zulfiya opaning bog'lariga tutash o'rrikzorga tikilaman. Va bir paytlar qadrli Zulfiya opaga o'qib berganim to'rtlikni baxtiyor takrorlay boshayman.

*Do'rmon bog'larida kezaman yolg'iz,
Bo'llardan kezib kelgan makonim.*

*Shukuh siz zamona mung'ayar shonsiz,
Yana ne g'amilarni yelkalar tanim.*

Hurmatli Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning bevosita rag'batlari bilan Farg'onadan O'zbekiston parlamentiga deputatlikka nomzod etib ko'rsatilganimda ishonchli vakillarim bo'llib, Oltiariqda o'n olti kun Qodirjon aka Ibrohimovning uyida men bilan birga yashagan sadoqatli Muhammad Yusuf va Yo'ldosh akani cheksiz alam va armon ila yod etaman!

Bevosita prizidentimiz otaliklarida Muhammad Yusufning risoladagidan ham yaxshi tavallud yubileyi o'tkazildi. Mana endi xos farmon bilan millatimizning shonli farzandi va shoirasi Zulfiyabeginning yuz yillik tantanalarini nishonlamoqdamiz.

Ulus el, ana shunday iste'dodli, sharafti farzand va fikr insonlari bilan millatdir, xalqdir.

Tuproq — o'zi uchun moli jonidan kechganlarning qoni ila sharaflangandagina Vatanga aylanadi.

Buyuk zakolarning teran idroki, uzoqni ko'ra bildigan zakosi, favqulodda tig'iz holatlarda qabul qilgan to'g'ri qarorlari, ilmu-amallari va bunyodkorlik ishlari bilan sharaflanadi.

Zulfiya opa bilan qariyb o'n yil chamasi bir binoning uchinchini va to'rtinchini qavatida yonma-yon ishladik. U kishi "Saodat", men "O'zbekiston san'ati" jurnallarining bosh muharirrili edik. Deyarli har kuni ko'rishardik. Boisi, hozirgi axborot agentligi binosining ikkinchi qavatidagi oshxonasi kirishida, so'l tarafda bosh muharirrilar uchun yemakxonasi bor edi. Bu ishning tashabbuskorli Zulfiya opa edilar. Respublika gazeta va jurnalarning rahbarlari har kuni bir piyola choystida ko'rishib, subbattashardik.

Bu tarixiy davralarning bekasi, katta-kichik tadbirlarning ilhomchisi, qirolichasi so'zsiz Zulfiya opa edi. O'rinnbosarları Halima Xudoyberdieva ham opa bilan kelardilar. Davramiz keng edi. Qadrlı Asqad aka, Mirmuhsin domla, Ibrohim Rahim, Maqsud Qoriyev, Nikolay Timofeyev, Shavkat Niyozov, Sadulla Karomatov, Suhrab Yo'ldoshhev, Rustam Nurullin, Tuyg'un Valiyev, Boltaboy Yusupov, Sharof Ubaydullayev kabi ustoz va davradosh do'star. Ular nomimi hurmat va ehtirom ila tilga olmoqni o'z insoniy burchim deb bilaman.

Biz kechmishdagi ustozlarni, xalqimizga baholi qudrat xizmat qilgan kishilarni unutsak, bizni ham kelajak avlod unutadi.

Davramizda tesha tegmagan gaplar, g'atali holatlar va

ichakuzdi hangomalar ham bo'lib turardi. Bir kuni tushlikda

g'amxo'rimiz Vera opa rassolnik degan birinchi ovqatni olib

keldilar. Odatimizga ko'ra hech kim Zulfiya opadan oldin

yemakka qo'l urmas edi. Men Zulfiya opaning qarshilarida

o'tirardim. Ovqatdan bir qoshiq ichib ko'rgan opa achchiq

qalampir yeb qo'ygan qiyofada menga qaradilar. "Juda sho'r-

ku", dedilar kulimsrab. Barchamiz ta'tib ko'ridik. Haqiqatdan

yemak juda sho'r edi. "Yo'li bor, Zulfiya opa" dedim oldimizda

turgan shakardan qoshiqda olib, yemakka solarkanman.

Shunday qilib barchamiz shakar bilan ta'mini rostlab,

rassolnik ichganmiz.

1981-yil ta'tilini Zulfiya opaning takliflari bilan Zomin va

Baxmalda o'tkazmoqni niyat qildik. Saraton boshlanishi bilan

yo'iga chiqdik. Yana bir suhbatdoshimiz, opaning

qadrondlari, tarjimon va olima Sharofatxon Qambarova edilar.

Mirzacho'lni kezib, Zomin suv omborini tomosha qilib,

afsonaviy Sharsharaga yetib bordik. Juda ko'p ulug' tarixiy

shaxslar kezib o'tgan musofirxonaga joylashdik.

Bu xushmanzara manzilda bir haftani o'tkazzidik. Oshchi

do'starimizga ko'mak berib, turli ovqatlar tayyorlaymiz.

Yemak tayyorlash ham dam olishning bir turi deydilar Zulfiya

opa yoshlarg'a yo'l-yo'riq ko'rsatib.

Bir kuni keng archazorga chiqib, toshdan o'choq yasab

shirvoz etidan sho'rva qildik. Galma gal aylanib kelib sho'rvan

shopiramiz, masalliq solamiz, o'choqqa o'tin qalaymiz.

Ayniqsa, zirani go'zal bo'lib o'sib turganini ko'rgan Zulfiya

opa undan shoirona nigohlarini uzolmas edilar. Barchamiz

ishtiyoq bilan zira, kiyiko'ti, anoro'ti va hulvo terishga

kirishib ketdik. Tergan ziramizdan sho'rtega mo'lgina soldik.

Nihoyat sho'rwaniz pishib, ulkan archa soyasida dasturxon

tuzadik. Odatda kakliklar ertalab hamda peshindan so'ng

sov ichishga buloq va soy bo'yiga tushishadi.

Shu payt bizzdan ancha pastlikda to'dda-to'da kakliklar suvg'a tusha boshladı. Men yo'ldoshlarimizdan baland ovoz chiqarmaslikni, qushlarni cho'chitmaslikni so'radim. Zulfiya opa esa kakliklar to'dasida qanchadan kaklik borligini sanashga urinardilar.

— Hayotimda hech qachon buncha ko'p kaklikni ko'rganim yo'q edi, — dedilar opa uchib ketayongan qushlarga zavq bilan tikilib. — Bu ilohiy go'zal, asl holida turgan tabiat xilqattarini avlodlar uchun asranoq kerak.

— Baxmalga yo'iga chiqqanmizza sizga yana bir narsani ko'rsataman, — dedim u kishining rohat qilayotganidan kursand bo'lib.

— Nima edi? — dedilar samimiy ko'zları yonib.

— AytSAM qizig'i qolmaydi. Syurpriz!

— Bo'pti, — dedilar darhol rozi bo'lib.

Va nihoyat tarixiy sho'rwaniz surpraga keltirildi. Hafsala bilan ichmoqqa kirishdik. Biroq mazasi boshqacharoq Hayron bo'lib bir-birimizga qaradik. Sho'rviadan ziraning emas, o't-o'lanning ta'mi kelardi.

Ayb menda edi. Ziravor teruvchi sheriklarimga ziraning yowvoyisi ham bo'ishini aytishni unutgan ekanman. Kimdir taxir ta'm beradigan anor o'tidan ham solib yuborgan ekan. Biroq kulishib, hazil-mutoyiba bilan bunday totli sho'rvanib bundan buyon hech qachon tota olmasligimizi aytib, mazza qilib ichdik. Ta'mini rostlash uchun haqiqiy zira va kiyik o'tini ezib soldik.

— Sayri sayohatlar shunisi bilan qiziq-da, hamma narsa siz bilan men tushlik qiladigan Veraxonning dasturxonidek, qoshiq va vilkalar joy-joyiga qo'yilganda sayohat bo'larmidi, — dedilar opa yayrab. — Yurtumizing har o'tu giyohi aziz va davo.

So'ngra, afsonaviy Supa tekisligi orqali Baxmal tomon yurdik. Opa maroq bilan surprizni kutardilar.

— Ana, surprizing nishonasi, — dedim tepamizdan pastgina uchib o'tayotgan burgutni ko'rsatib. — Hozir ana u tepalikka chiqib, uning harakatini kuzatamiz, — deyman so'z bergen surprizim amalga oshmay qolishidan cho'chib.

Burgut pastlab uchib borib, bir qoyatoshga qo'ndi. Biz ham mo'jallagan tepaligimizga yetib keldik. Archalar ostiga kiyimlarimizni to'shab, o'tirdik. Barchamiz diqqa bilan burgut qo'ngan qoyaga boqardik. Yuksak cho'qilarning to'rt tarafidan burgutlar biz Burgutqoya deya atagan qoya tomon uchib kelishardi.

— Mana o'sha surpriz. Hozir qoyaga 50 chog'lik burgut uchib keldi. Hademay ikkibarobar bo'ladi, — izoh berardim.

— Ana tabiatning mo'jizasi.

— Esladim, siz bu yerga Andrey Voznesenskiy bilan Andrey Dementyevni ham olib kelgansiz. Voznesenskiy ayub bergandi. Dementyev "Yarador burgut" degan she'r yozib, sizza atagan, — xursand edilar opa.

Ko'p o'tmay burgutlar galasi yuzdan ham oshib ketdi. Kun oqqan bo'lsada, bu manzaradan ko'z uzip, ketgimiz kelmadsi.

— Xayr burgutlar, xayr tog'lar! — dedilar opa qoya tomon qo'l siltab.

Bizni kuta-kuta yo'lda qarshilamoq uchun Baxmal o'mron fidoysi O'ngar Tilovoy ham yetib kelgan edi.

Navoiy kon metallurgiya kombinatining mo'jaz fin uylariga joyalashgandik. Zulfiya opaning Baxmal, O'smatga tashrifи bayramga aylanib ketdi. Har kuni tog'u bog', dalaю soy, ekzotik qishloqlarni kezamiz. Oyning Oykor tog'i usidagi nur raqsini tomosha qilamiz. Oddiy o'qituvchi, cho'pon va sog'uvchilar bilan suhbatlashganda opa bu tabiiylik va soddalikkdan yayar, yashargandek bo'lardilar.

Zulfiya opa har safar qachon qishlog'ingizga boramiz deya so'rardilar. Nihoyat shu kun kelib, O'smatga bordik. Amakim Bahrom bobo qo'yso'yib qo'noq etdilar. Shu payt oldimizga kelgan o'g'llari Norqul amaki qiz ko'rganligini, ayollar chaqaloqning ismini opaning tashriflari munosabati bilan Zulfiya qo'ymoqchi ekanligini ayди. Bobo shu taklif uchun opadan rozilik so'radi.

— Yaxshi taklif, — dedilar opa o'zlariga xos g'amgin tabassumda. — Qizingizni ismi Hulkar bo'isin. Shunda mening Hulkar ismli qizlarim yana bittaga ko'payadi, — deya chaqaloqqa ism qo'yib berdilar.

O'sha paytdagi tuman va xo'jalik rahbarlari Karomat Muhammadiyeva, Arslon Hakimov, Abdusamat Narimonov, Safar Mallayev, Xolmurod Rasulov, Nusrat Abdurazzoqov, Abduvohid Usanov, Islom Usmonov, Sanaqul Begaliyev, Fayzulla Ne'matullayev, Sayfiddin Ziyodullayev, Yarash Pardayev, Mannon G'aybullayev va Nosir Qodirovlar bizni zeriktirmas, tongotar suhbatlar qurardik. Ayniqsa, rayjiroq o'm raiasi Karomat Muhammadiyevanining mehnmonovozligini keyin ham eslar edik.

Do'stlarga sadoqatl, insonlarga vafodor bo'lgan Zulfiya opa bu samimiy va ko'ngli ochiq kishilarni nomma-nom o'rab, salom ayutishimni tayinlardilar. Bir finjon qahvaning qirq yillik xotirasini bor deganlaridek, u kishi bir daf'a subbatlashgan, tuzini yegan, ko'zi-ko'ziga tushgan insonni kim bo'imasin unutmash edilar.

Zulfiya opaga hassos shoirimiz To'ra Sulaymonning ellik yillik yubileyi viloyatida tuzuk-quruq nishonlanmaganiida muna shu odamlar u kishini Baxmalga olib kelib, bir hafta bayram qilib, ko'ngillarini olganlarini hikoya qilib beraman va shoir tug'ilgan Aldashman qishlog'iga olib boraman.

Yuqorida, buyuk Hamid Olimjon timsolida bahs etganim, insomiylik iste'dodi; odamiylik sha'n-sharafi aslidha shudir. Insonga bo'lgan mehr-muhabbat, eng yukasak san'at deganda hum biz shuni anglaymiz.

Faqat insonga, insomiyatga bo'lgan sevgi, sadoqat va mehr kishini yuksaltiradi.

O'zini bilganni o'zingdek bil deyildar. O'zini bilgan, o'zligini o'pgan kishilarga o'zgalar dardini anglamoqqa hozir bo'lardilar va anglab yeta oladilar.

Buning uchun ko'ngil, dard odami bo'lnoq lozim. Hamid Olimjon o'zi fath etgan ona xalqi qalbining sultoni bo'lsa,

Zulfiyabegim barchanning, ayniqsa, oddiy, qo'li kalta, yordanga muhtoj kishiar ko'ngluning malikasi edi. U kishining qabuliga kelgan hech bir kishi ishi bitmay, norzo bo'lib ketmas edi.

Boisi, opa haqiqiy, inson kabi inson, yaxshi odam edilar. Heminguey ayrganidek, faqat yaxshi odamlardangina yaxshi yozuvchi chiqadi.

Hayot deya atalgan ne'mat tug'ilish va o'slim orasidagi ikki qadamlik masofadir. Biz uni tirkilik saodati ham deymiz. Shohu gado birdek uning past-balando yo'llaridan o'tishga mahkum etilgan.

Boshiga Hamid Olimjondek insondan ayrılmox falokati tushgan opa bu fojaviy voqeadean ikki yil o'tar o'tmas, firqa mustabid tuzum, notabilly g'oya, hech kimni ayamas edi. Boshiga tog' kabi musibat tushgan mushti par beva aylol, ona va shoira ham uning zug'umidan chetda qolmadı. Bu siyosat, iste'dodli, yangi gap va fikr aymoqqa harakat qilganimi ayovsiz "cheenkaka" qilib turardi. VKP (b) Markaziy Qo'mitasining 1946-yilning yozida qabul etilgan "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari to'g'risida "gi mutloq bir taraflama va asossiz qaroriga ko'ra o'sha davrning ikki mash-hur adibi Anna Axmatova va Mixail Zoshenko sovet voqelegiga tuhmat qilganlikda ayblanib, ayovsiz tanqid ostiga olindi. Zoshenko va Axmatova uyushma a'zoligidan chiqariladi. Bu tayoq Ozbekistonda Zulfiya bilan Sobir Abdulla kabi bir qator ijodkorlar boshida ham sinadi. Markazagi voqealardan so'ng o'n kun o'tib, "Qizil O'zbekiston" gazetasida "Sharq yulduzi" jurnali to'g'risida sarlavhali maqola chop etiladi. Bu ma'naviy tajovuz va terrordan so'ng tanqidiy va jiddiy asarlar kamayib, gazeta va jurnallar sahitalarini bachkana, nojjiddiy, oldi-qochdi qoralamalar bosib ketadi.

Shu paytda yuzaga kelgan "Konfliksizlik" oqimi o'n yil chamasi davom etib, adabiyot va san'at turg'unlikka yuz tutadi.

Hayotidagi eng og'ir sinovdan bukilmay, ezilmay o'tgan, jigargo'shalari Omon va Hulkarga ham ota, ham ona bo'la

bilgan, Hamid Olimjonidan qolgan mo'tabar yodgorlik, shoirning onasi Komila ayani ham farzandidek ardoqlab qaragan, nasriyotdan oladigan maoshi va uzuq-yuluq qalam haqi bilan butun boshli oilani tebratgan shoiraning ayol vujudi erkakka aylangan edi.

U tepayu pastdan keladigan barcha katta-kichik zarbalarga qarshi mardonavor tura biidi. Bu g'alamis va fasodchilar, razil va hasadchilarining bir kun kelib uning yuksak insoniyligi, shon-shuhrati changida qolishlarini bilar edi. Shunday bo'ldi ham. Uning ulus va vatanga xizmati yo'llidagi zahmatlari xalq shoiti unvoni, Davlat, Xalqaro Javoharjal finachilar in-iniga kirib ketdi.

Biror fikrga qo'shilib-qo'shilmaslik, nuqtayi nazar, tanqid vi tahlil har zamon bo'lgan va bundan so'ng ham davom etadi. Undan o'zini olib qochgan kishi — ojiz, benavo kimsadir. Kuchli shaxsiyatlar bag'ri keng, qalbi daryo insonlar o'zgalarining xato va nuqsonlarini ham zimmalariga oladilar. Yoshlarini, o'zidan keyin kelayotgan avlodni aayadi, zamoning turli shamollaridan qo'riydi, himoya etadi. Ba'zan esa bu "faoliyat" davr taqazosi bilan shaxsiy manfaatlardan, guruhbozlik va mahalliychilikdan kelib chiqib, nomi ne qudar ulug' sanalmasini, suprasi quruq, mukamallikdan yiroq, lite'dod siz kishilarning, qobilityatlarni ko'ra olmay qilgan xurujlaridan iborat bo'lgan. Ancha-muncha nomdor kishilarga ham vatandan ko'ra oshqozon afzal ko'ringan.

Tanqid madaniyatining ham axloq odobi, andishayu, tartib qoidasi mayjud bo'lib, haqiqiy maktab va girdi saroy ko'rgan, ko'zi ochiq oydin kishilar buni yaxshi bildilar. Tanqid qilmoq, fikr bildirmoq, so'z aymoqning qoidasi, mezonini va me'yori buzildimi, u fitnaga aylanadi. Fissqu fasod, fitnayu fujur bolalagan joyda nosog'lom ilmiy, adabiy va davridagidek bola otaga, uka akaga ayyq'oqchilik qilishdek uayri insoniy vaziyat vujudga keladi.

Insonning eng buyuk ixtirosi "so'z" va unga bo'lgan mas'uliyatni Jaloliddin Rumiy hazzatlari shunday izoh etadilar. "So'zga boqdim, so'zmi deya, so'zlagan odamga boqdim, odammi deya". Demak og'izdan chiqqan har qanday gap ham "so'z" emas.

Xalqimizda esa "Gapni gapir uqqanga, jonne jonga suqqanga, gap gapirib nima qilasan, onasi jumada tuqqanga" degan naq'i borki, bu "so'z" so'ylamak mas'uliyati neqadar muhim ekanligini ko'rsatuvchi otalar so'zidir.

Boisi "so'z", uning ortida turgan fikr, kishining, kishi ortida turgan ulusning qiyofasi, uning ma'naviy-ma'rifiy darajasining me zonidir. Dostoyevskiy ta'kidlaganidek, xalqning, uning mayjudligi bilan emas, orzu intilishlarini nimalarga va qanday yo'naltirayotgani bilan baholash kerak.

Adolat, haqu haqiqat hamma narsadan ustundir. U, hatto vatanparvarlik, miliatparvarlikdan ham oldin keladi. Boisi, adolatni bor bo'y-basti bilan anglab yetmagan yoki uni chetlab o'tmoqchi bo'lgan har qanday inson asl yurt va ulussevar bo'la olmaydi.

Dono odamda uch hislat namoyon bo'ladi. U eng awalo, birov larga bergen maslahatiga o'zi amal qiladi. Atrofidagi kishilarning nuqsonu kamchiliklarga sabr-toqat etadi va hech qachon haqiqatga qarshi bormaydi deganida Tolstoy ham shuni nazzarda tutgan bo'lsa kerak deb o'yayman.

Hech kim tanqidan tashqarida qolmasligi kerak. Ayniqsa, ijodkorlar. Adabiyot va san'at ahilning undan ihotalanishi, san'atkor sifatida yetilmasligiga yoxud shakllanmay turib, sinishiga olib keladi.

Kishi yolg'izlikda yovuzlashganidek, e'tirozu tanqidan ustun turgan odam ham borgan sari o'zidan ketib, u yoki bu sohaning hokimi mutloq his eta boshlaysi. Ayniqsa, bunday kishilar insonlar taqdirini hal eta boshlasa bormi? Xudo urdi deyavering. U endi xatti-harakatda chek-chevara bilmaydi. Nuqson va xatolarini chuqurlashtirib, uni jinoyatga aylantirib boraveradi. Ma'naviy jinoyat, ma'naviy terror esa hech bir unsuri bo'yicha jismoniy qatag' omdan farq etmaydi. Va oxir-oqibat ixtirochilarini o'z qilmishlaridan hosil bo'lgan balchiqdan iborat chohga tortib ketadi.

...Ming to'qqiz yuz o'ttiz yettinchi yillar... Ulusning ko'zi ochiq intellektuallari boshida o'q g'uvvillab, qilichilar o'ynagan, hibxonalar to'lib-toshib, Sibir o'rmonlarida odamlar tosh qotib, qurban bo'layotgan ayananchi kezlar...

Toshkentda istiqomat qilayotgan Isroilovlar oilasi ham motanda. Oila bir yo'la ikki jigarbandidan ayrıildi. Dastlab jigargo'shalari Ismoil Isroilovdan judo bo'ladi.

Chingiz Aytmatovning qiblagohi, O'sh viloyati rahbari To'raqul Aytmatov bir yuzu o'ttiz yetti nafer qirg'iz xalqi oydini bilan bir g'isht zavodining o'chog'ida qanday otib tashlagan bo'lsa, Isroi va Qodirjon Isroilovlarni ham xuddi shunday qatl etadilar.

Bu azob-uqubat, bu dardu alam, bu cheksiz musibatni ko'tara bilmuoq uchun Zulfiya Isroilova bo'lish kerak edi. Agar Qirg'iziston mustaqillika erishmag'anida ustoz Aymatov otasining qayerda va qachon mahv etilganini bilmay o'tib ketar edi.

Bu fojiali voqeani kechasi qo'y boqib yurgan bir cho'pon ko'rib qoladi va o'llimi oldidan hech kimga so'zlamaslikni tuyinlab, qiziga aytadi. Sobiq Itifoq tarqagandan so'ngina kampir bu voqeanni odamlarga aytadi. Umumiy qabrga ko'milgan bir yuz o'ttiz yetti kishining jasadi qoldiqlarini topadilar. Chingiz og'aning taklifi bilan asarlardagi Anna beyit kabi bu manzilni qirg'iz xalqining shonli, sharafli insonlari so'ng makon topadigan Attabayitga aylantirildilar. Ne qadar alamli va qayge'uliki, saksan yosha to'lishiga sanoqli oylar qolganda oddiy shamollash oqibatida hayotdan ko'z yungan Chingiz Aytmatov ham endi shu yerda. Shahid qiblagohi, padari buzruk vorining yonida...

Ikkı aka ham hibsga olingan. Mushtipar singil Zulfiyaqo'tida tuguncha bilan hech bo'lmasa ularning qayerdaligini, hayotligini bilish uchun qamoqxonama-qamoqxonan tentiraydi. Qayerga bormasin, umidu ilij mujdasi yo'q. Shu payt kimdir yarim kechasi eshik qoqib, uylariga keladi. O'zini tanitmaydi, qo'llidagi maktubni berib oqib bo'ladi.

Gazeta parchasiga shunday jumlar yozilgan edi: "Biz o'sha joydamiz. Bugundan ertaga nima bo'lishi nom'a'lum. Zulfiya bilan Hamidion tinchmi? Ularga tegishmadimi? Diydar qiyomatga qolganga o'xshaydi. Omonda bo'linglar..."

Haq akajonim-a, o'zi ne ahvoldayu bizni o'yabdi-ya, deya xatni ko'z yoshi oqayotgan yuziga bosadi Zulfiya.

Bu dahshatl, so'z bilan izoh etib bo'lmash holat va fojalarga yuragi qanday dosh berган, hali-hanuz aqlim yetmaydi der edilar opa juvonnarg ketgan qardoshlarini alamla eslab.

Biroq Zulfiya opa sevimli akalarining xoklarni topa olmadi. U kishining nozik vujudi, latif qalbi va zarif ko'nglida cheksiz buyuk armon va hasrat yashar edi. Bu jigargo'shalari va sevimli yorining achchiq taqdiri, so'z ila ifodalab bo'lmash og'ir sanchiqli og'riq va azob edi.

Ikki ulug' shaxsiyat, Zulfiyabegim va Chingiz Aymatov taqdirdosh, qismatdosh ijodkor edilar. Ularning bu achchiq yillar hasratini bir-birlariga aytib dardlashganlarning guvohi bo'lganman.

Kuy ham kuygandan chiqadi, kuygan yerdan yaxshi o't bitadi deganlaridek, bu azobu iztiroblar har ikki ijodkorni ham hayorga o'zgacha ko'z bilan qarashga, har doim haqu haqiqat yomida turishta o'regatti.

Zulfiya opa bu iztiroblarni shunday izoh etadi.

*Hamon e 'tiqodim – haqiqat, haqdir,
So 'zlayman, yuzimni tutib Ka'baga.*

*Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o 'radi ruhim abadga.*

Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpox, Usmon Nosir kabi yuzlab oydinlar Stalinoberiya myasorubkasiga tushib, shahid ketadi. Vohid Zohidov va Mirzakalon Ismoiliy kabi yuzlab ziyorilar esa Sibir qaraq'ayzorlarida, temir panjaralar ortida azob-uqjibatlarga duchor bo'jadi.

Tong otib, kun botib, umlar yelga sovrilib, behuda o'tayotgan musibatlari damlar. Baxt ham, musibat ham qo'sha qo'sha degandek, buning ustiga ustak ikkinchi jahon urushi boshlandi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilayotgan Hamid Olimjon va jamoaga Pushkin, Lermontov kabi rus, Shekspir kabi jahon klassiklari asarlarni o'zbek tilida qayta nashr etish vazifasi topshiriladi. Sho'r va rahbarning boshi qotadi. Axir bu asarlarni endilikda xalq dushmaniga aylangan uning kechagi do'stleri, hamsasblari tarjima etgandilar. Kimga bermasin ular darajasida tarjima eta olmaydi. O'ylay-o'yay masalan six ham, kabob ham kuyymaydigan usulini topadi. "Bog'chasaroy fontani" (Usmon Nosir tarjimasi), "Boris Godunov" (Cho'pon tarjimasi), Shekspir saylanmasi (Vohid Zohidov tarjimasi) nashrha tayyorlanib, chop etiladi. Kitoblarning o'ng zarvaralarida tarjimon ismi familyiyasi ko'rsatilмаган holda Hamid Olimjon, Zulfiya, Hamid G'ulom tahriri ostida degan yozuv bor edi.

Zakiy kitobxon bu nozik ishoratda asarlarning asl tarjumonlari kimlar ekanligini fahmlagan edi.

"Faqat shu paytda qiyinalib yashayotgan oilalarga qalam haqini yetkazishning imkonni bo'Imagen edi" degan edilar Zulfiya opa iztirobli ohangda.

Xuddi ishu paytda To'xtasin Jalolov tayyorlagan ilk "O'zbek nadabiyoti Xristomatiyasi" Mirzakalon Ismoiliy tarjima qilgan Lermontovning "Zamonamiz qahramoni" kabi qator asarlari tarjimasiga o'z nomini qo'yib chop etganlar, Maqsud Shayxzodani Sibiga yo'llab-yo'llamay uyimi egallab olgan ijodkorlar ham bor ediki, bularnida aytib o'tmoq joizdir. Sharafli, shuurli kishi har qanday og'riu yengil dam va duqiqada millat, el-yurt ko'z o'ngida bir xil qiyofada, haqu idolat tarafida turadi. Unda insonlik imoni va ijodkorlik vijdoni butun ekan, hech qachon katta-kichik lazyiqlarga bo'yin egib, zamon va davronning o'tkinchi epkinlariga berilib, aldanmaydi. To'g'ri yo'ldan adashmaydi. Oqni oq, qorani qora deydi.

Goh zavqli, goh g'amgin suhabatimiz davom etar ekan, opa o'sha, boshiga olam g'ami ag'darilgan fojadan so'ng, qirq oltinchi yilgi ruhiy va ma'naviy zug'umdan keyin uzoq muddat "qo'llariga qalam ololmaganlarini aytdilar. Abdulla akaning "olti oydir she'r yozmayman, yuragim zada" degan satrilarida jon bor ekanda deyman opani chalg'itimoqchi bo'lib. "To'g'ri, Abdulla haq. Buni boshidan kechirgan biladi. Ijodkorning qalbi nozik bo'idi. Kichik bir narsadan boshi ko'kka yetib, yuragi to'lib-toshib yozsa, shunday kichik bir tazyiqdan astoydil o'ksinadi" dedilar. Men, adolatsizlik va nohaqliq qurbanbi bo'lgan haqiqiy ijodkor bundan ta'sirlanib, yanada yaxshiroq, kerak bo'lsa kamerasda ham yozaveradi deya o'yashimi aytdim.

Biz opa bilan hamma narsani, hatto siyosat va uning qabariq qirralari haqida ham ochiq, bir-birimizga ishongan holda suhabatlashardik. "Qalb javohiri darz ketganda uning bitishi qiyin bo'lar ekan. Vaqt kerak bo'lar ekan. Undan tashqari qanday jamiyatda yashayotganiningizni unutmang. Ilohim boshingizga bunday kunlar tushmasin" dedilar opa hayot tairibalaridan kelib chiqib duo qilarkanlar.

Zamonlar kelib, o'kinch bilan bu dono va zakiy, yuksak fahm-farosatl, hech bir katta-kichik narsani e'tibordan chetda qoldirmaydigan butun shaxsning ne qadar haqligiga amin bo'ldim. Odam bolasi shunday, yomon kurnarni ko'rmay, yaxshi kunlarning, yomon odamlarni ko'rmay turib, yaxshilarning qadriga yetmas ekan.

Xalqimizning tom ma'nodagi fidokor shaxsiyatları va san'atkorları Hamid Olimjon va Zulfiyabegim imon-e'tiqodalaridan, yuraklarining tub-tubidan kelgan eng olyijanob his-tuyg'u - odamlarga, el-yurtiga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat, sadoqatu samimiyat qanotida bugungi kundagi ardoqli yuksaklikka ko'tarildilar.

Gohida uzoq o'tirib suhabatlashib qolardik. Siqilgan damlarida telefon qilib, chaqrardilar. Jizzax, jizzaxlik qarindosh urug'lar, viloyatdagi ijodkorlar haqida so'rab surishtirar, muhokama va munozara etmagan mavzuimiz qolmas edi. "Sizzan bir ilmosim bor" dedilar bir kuni

subhatimiz nihoyasiga yetganda g'amgin ovozda. Sergak tortib, dardchil va mao'yus ko'zlariga qaradim. "Ko'rishganingizda Sharofjonga aying, meni Hamid Olimjonning yoniga qo'yasinlar"...

Tilimiza hech bir kalima kelmas edi.

Hayotning past-balandliklari toliqtingan, o'z qismatini ishonib topshirayotgan, o'zlaridan yosh insonning bu suhabatdan ko'p o'tmay qazo-sharobini si pqorajagini opa bechora qaydan bilsin.

Opas Hamid Olimjon hayotdan ko'z yumgan ondan boshlab yonida turgan, hayotining eng og'ir kunlari tiraq bo'lgan insondan, Hamid Olimjonning sadoqatli shogirdi va halafidan ayrligan edi.

U kishining bu kunlardagi ahvoli ruhiyatini so'ylamoqqa til, yozmoqqa qalam ojizlik qiladi.

Hamid Olimjon bilan Zulfiyaxonim abadiyatga bosh qo'ygan muqaddas manzilda haqlariga duo etib, Qur'on karim suralarini takrorlayman. Oltolhdan rahmat tilayman. Ularning yonlarida nimalar bo'layotganini suragandek Oybek domla bolalarniki kabi beozor ko'zlarini sizga tikadir. So'lroqda teran nigohli Abdulla Qahhor, do'stimiz O'ktam Usmonov. Ular ortidan Odil aka, Pirimkul aka ketdilar. Bu insonlarga shogirdlik, halaflik burchini ko'ngildagidek ada etta olmadik...

Tog'lar... Kishi uzoqlashgach ularning ulug'vorligi va buyukligini yanada aniq va yaqqol ko'ra boshlaydi. Ozod aka Sharafiddinov "Sizni sog'indim Zulfiya opa!" deganda ana shu ulug'vorlik, hayotligimizda bir-birimizning qadrimizga yeta bilmaslikdek g'ayri milliy, g'ayri vattaniy tuyg'ularni his etgan bo'lsa ajab emas. Ayni damda men ham xuddi shu holatdamam. Ulusimiza xizmati singan sharafli kishilarimizni, ota-onalarimizni ziyorat etgan kabi mudom yo'qlab turishimiz kerakligini odatdagidek kech anglaymiz va afsus chekamiz. Vuqt esa o'z ishini qilaveradi.

Darvozadan kirishingiz bilan sizni ma'yus va zakiy nigohli botir Zokirov qarshilaydi...

Bularning barchasi endi kechmishdir. Ular vatanimiz tarixining oltin harflar ila yozilgan zarvaraqlariga aylangandir.

Zotan, biz tuproqdan yaralqamiz. Tuproq tomon keturmiz.

Yerda ozmiz, yolg'izmiz. Ko'proq tomon keturmiz.

Va, vatanga aylanjakmiz! Va tanimida vatan yashayajakdir!

Bu aziz va tabarruk tuproqni tark etarkanman, orqaga o'grilib

vatanga aylanib qolgan qondosh va jondoshlar bilan

xayrashgan bo'laman. Yana beixtiyor, nigohim faylasuf,

rassom va buyuk san'atkor Botir Zokirovning teran nigohi

bilan to'qnashadi. U kishining jurnalimiz tomonidan berilgan

"Jamiyatimizza, ma'naviy va madaniy hayotimizda qanday

jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirish lozim deb o'ylaysiz?"

Degan savolga "Bu jamiyatda biror bir o'zgarishni amalga

oshirishni o'yamoqning o'zi absurd" deya bergan javobini

xotirlayman.

Kechmishning "Olg'a, faqat mening ortimdan" degan ura-

urachilik siyosati ne qadar tomir otmagan bo'isin, xalqimiz

orasida Botir Zokirov kabi sog'lom, teran va to'g'ri

fikriaydigan oydinlar bor edi. Shunday shaxsiyatları bor

xalqgina, xalqdir.

... Sakson ikkinchi yil yozining so'ngida Hulkar opa va

(Hamid Olimjon va Zulfiyaxonimning qizlari, filolog olima)

umr yo'ldoshlari, tarixchi olim (Olloh rahmat etgan bo'isin)

Omon Oybekovich Toshmuhammedov bilan Hulkar opa orzu

qilib yurgan ota yurt sayohatiga chiqdik. Biz qo'shni edik.

Hamid Olimjonning Jizzax shahrining markazidagi,

mustaqillikdan so'ng istirohat bog'i va bog' o'tasiga

kö'chirilib, ta'mirlangan muhtasham haykaliga gul qo'yib,

ziyorat etdik. Bizning qishloqda, Vafoql toq'aning uylarida

yashadik.

Hulkar opa otalari Jizzaxdan Samarcandga qatnab o'qigan

ko'chhalarda, u kishi kuylagan ko'm-ko'k vodiya semurg'

kabi uchib yurardilar.

O'smatdan Baxmalga ketayotganimizda suvi ozaygani uchun

Sangzor daryosidan kechib o'tardik.

Saraton chiqqan, tog'lardagi so'ngi qorlar erib, irmoqlar

jildirab, daryo suvi ham tortilib qolgan paytlar edi.

— Bu o'sha Sangzor daryosining boshlanishimi? — deya so'radilar Hulkar opa suvning ozligidan hayron bo'lib.

— Ha, bu o'sha Sangzor. Tepa qismi Toshloq deyiladi.

Sarbozor degan joyda Zarafshonning bir irmog'i bilan

qo'shilib, ulkan daryoga aylanadi, — izoh bergen bo'idim.

— Uyimizda bu daryo haqida ko'p gapirilardi. Nega suvi oz? — so'rashda davom etdilar.

— Tog'lardagi qorlar erib bitdi, Hulkar opa. Yoz bo'yি to'lib-toshib oqqan suvlar endi yo'q, — javob qildim.

Kutilmaganda Hulkar opa sababchi bo'lib, yozlajak she'rnning birinchi satri tuq'ilgan edi. Va manzilga yetib borgunimizga qadar bitik qog'ozga tushdi. Mana o'sha she'r:

*Qorli tog'lar erib bitdi,
Endi suvlar yo'q-yo'q.
Qo'llimdag'i qumg'onginam,
Toshga tegar to'q-to'q.*

*Seni so'rab borganimda,
Opang dedi yo'q-yo'q.
Qaromiqday qaro ko'zlar,
O'q, otdilar o'q-o'q.*

*Oyqortog'ning dasasiga,
Era tushar qorlar.
Qorli tog'lar sanamiga,
Bo'laiku-ey zo-orlar.*

*Muhabatga zorigqanlar,
Bo'lmasinalr xo-orlar.
Sadoqatning sinoviga,
Mayli quring, do-orlar.*

Agar Hamid Olimjon dunyoga yana qaytib kelganida yana no'isz o'zining yakkayu yagona, betakror Zulfiyasini izlab topgan bo'lar edi.

Munis va mehribon, mahzun va sevimli Zulfiyabegim esa ko'kdagi yorqin yulduz kabi yonib o'chgan Hamid Olimjonini kutib yashar edi. Ularni bir-birlarisiz tasawur etib bo'lmaydi. Darvoqe, sevgi, sadoqat timsoliga aylangan mehr-muhabbat ma'budasi bu kunni kutib yashadi.

Ro'zi mahsharda diydor ko'rishmoq uchun uning huzuriga yo'l oldi...

Hamid Olimjon, ijodi, asarlari kabi xalqimizning ma'naviy qiyofasi, mangu qo'shilg'iga aylangan e'tiqoddir.

Mehru oqibat, sadoqatu she'riyat malikasi Zulfiyabegim ersa afsonaviy Hamid Olimjonning hech kimga aytмаган so'ngsiz, mangu qo'shilg'idir.

Shul muqaddas tuproq, sharafli ulusimiz, ona tilimiz yashar ekan, bu qo'shiqlar abadiy yangrayajakdir!

Siz muhtaram, yuksak didli o'quvchiga taqdim etilayotgan ushbu to'plamni Zulfiya opa alohida diaqat va tamkinlik bilan hozirlab, she'rlarni saralaganlarini bilaman. Yangi she'rlarini o'qib bergenlari va maslahatlashib, kitobni tartib etganimizga ham o'ttiz yildan oshibdi.

Kitobdagagi she'rlarni va unga nom tanlashni beg'ubor qalbli, bola kabi ko'ngli toza inson hamda olima Hulkar opa bilan maslahatlashdik.

Zulfiya opaning dastxatlari va menga yozgan xatlarini varaqlar ekanman, bu satrlar orasidan u kishining mehrli nafasini, samimiy so'zlarini nigohlari tuygandek bo'laman.

Shunday bitiklardan birini 1979-yil Bokuda, ozar tilida chop etilgan "Tuproqqa sajda" deb nomlangan kitoblariga yozib berган edilar. Ko'nglimni tog' kabi ko'targan bu samimiy so'zlarini majburiyat, omonat o'laroq qabul etganman va hamon shu fikrdaman.

U kishi bilan uchrashganda, gohida esa bilkossa, ko'ngillarini so'rab va shu ikki og'iz so'zni aymoq uchun qo'ng'iroq qilib, mehru samimiyatlarga takrorlar edin. Zulfiya opa, men sizni yaxshi ko'raman! "Men ham" deilar opa boshlari ko'kka yetib va ishda bo'lsalar hamon

xonalariga, bog'da bo'lsalar dachalariga taklif etardilar. Uzoq dardlashardik. U kishi sizning ikki og'iz iltiq so'zingiz munosabatingizga o'n misl mehr-muhabbat, insoniylik va olyjanoblik bilan javob qaytaradilar.

Bugun, buyuk armon va cheksiz mehr ila yana shu so'zlarini takrorlayman. Zulfiya opa, men sizni yaxshi ko'raman!

Qadrli, aziz va munis Zulfiya opa! Bugun bu so'zni Siz va ustoz Hamid Olimjon sevib ardoqlagan, boshiga ko'targan qadim va shavkatli Turon diyori, bu go'zal va betakror yurtning qalbida ezgulkik, mehru oqibat, adlu adolat yashagan katta-kichik vatandoshi takrorlamoqda.

Zotan siz, xalqimizning har qanday damu daqiqada, davru davronda haqiqiy insoniylik va san'atkorlik or-nomusini iyomonu insofa saqlagan, so'z aytmox mas'uliyatini ulusning qismatu qadari deb bilgan, insonning insonga bo'lgan mehri oqibati va sadoqatining timsoliga aylangan shon-sharafli farzandi, shaxsiyati va ijodkorisiz! Sabru toqat, iroda va matonatning abadiyatga dahldor obidasiz!

Siz, millatimiz vijdoni, iyomon-e'tiqodi va mardona owozi samimish Hamid Olimjondek buyuk inson va mutafakkiring sevgisi, mehr-muhabbati va sadoqatiga sazovor, uning orzu-unidalariga sodiq, ilhomu she'riyat mabudasi o'laroq ahdu vafo timsoliga aylangan siyomo, sadoqatning abadiy ramzi va malikasi sifatida sizni sevgan xalqimiz ongi, shuuri va qalbida mangu yashaya jaksiz!

Zarofatu latofati, nafosatu tarovatti bilan o'lkamizni go'zallik, xayru saxovatga to'ldirib bahor kelayotir!

Ulusimizning Siz va Hamid Olimjon kabi bahoriy qalb egalari, shon-sharafli, ulug' farzandlari va san'atkorlarini so'rab, so'roqlab, yana bahor kelayotir!

Siz mo'tabar ijodkorlarni qadim Turon yurti, ulusimiz xonlasida ardoqlab, yo'qlab, so'rab-so'roqlamoqda! Siz va ulug' ustoz Hamid Olimjon Vatan timsoliga aylungansiz!

Millat borkin, Vatansiz, Vatan borkin, millatsiz o'lmas! Zotan bu aziz tuproqning bag'ri ham bizga Vatandir!

Biz Vatanga aylanajakmizi¹, Va tanimizda Vatan
yashayajakdir! Va yana bahor ketajak, Sizni so'roqlab!
Xuddi buyuk va betakror Hamid Olimjon sog'inib, suyb
so'roqlagani kabi...

*Sevgi desam, saqat sen desam,
Sening bilan yashasa qalbim,
Sen desamu, butun dumyoning
Sho 'rishiga qulog solsam jim.*

*Quyun kabi aylanar boshim,
Qaraymanu, ko 'zim 'imadi.
Va jilvangdan ko 'ngil ko 'zgusi
Parcha-parcha bo 'lib sinadi.*

*Shu qarashga bormi nihoya,
Bo 'lurmammi maqsadga vosil?
Toparmanni bir yangi g'oya
Bo 'larmikan bir murod hosil?*

*U'lumnum Agar meni qurshasa junun:
Bo 'lib qolsa sirim oshikora,
Atasalar nomimi Majnum?*

*Lutfiyaxonimning
linik she'manidan
namunalari*

BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB...

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafscha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiyarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergen kabi,
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan, bo'llib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,
Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarlilikarga olib ketdi boshimi.
Farhod tog'laridan daraging izlab,
Soylargaga qulatdi tog'ning toshimi.

Qirlarga ilk chiqqan qo'ychivonlardan
Qayda shoir, deya ayladi so'roq.
Barida sukunat, ma yuslik ko'rib,
Horib-charchhab keldi, toqatlari toq...

So'ngra jilo bo'llib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Ommoning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan za'far yonog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Lekin yotog'imda seni topolmay,
Qoldi bir nuqtaga uzoq tikilib.
Yana yel bo'ldi-yu kezib sarsari,
Mendan so'ray ketdi qalbimni tilib:

"Qani men kalganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mayjilanib bir daryo oqqan?
"Baxtim bormi" deya, yakkash so'roqlab,
Meni she'rega o'rab suqlanib boqqan?

O'rik gullariga to'mmaydi nega,
Yelda hilpiratib jingalak sochim?
Nega men keltirgan sho'x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to'llib boqardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimni.
Uning rangdor, jozib qo'shig'ida
Mudom ko'rар edim o'z jamolimni.

Qani o'sha qo'ychi xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?"

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
Ul ham g'amming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alanda tutoqib daraxtga ko'chdi,
Kurtakni uyg'otib so'yadi g'amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g'unchasini etdi choc-chok.

PALAK

Gulu rayhonlarning taraldi attri,
Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.
Bu qo'shiq naqadar oshino, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast.
O'Imagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo'lingda,
Hayotni kuylayman, cheknar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.

"Senga maftun bo'llib sevib qolganim,
Ishqning olovida o'rтанганим рост.
Sening yoding bilan naфas олганим,
Isming takrorlashга о'рганганим рост".

Dedingu, ey yigit, yuzimga boqding,
Sendan uzolmadim men nigohimni,
O'sha go'zal bahor bag'rimni yodding,
Endi o'zing tingla torigan ohimni!

Qizlar bo'yи yetsa tikardi palak,
Men seni sevdimu oldim qo'iinga.
Savatda tovianar rang-barang i pak,
Bahor nusxa tashlar chizgan gulimga...

Dushman ajal tortib keldi Vatanga,
Bizing sevgimiza tashladi hijron.
Sen ketding yarog'ing olib yelkangga,
Qaytaman, kut, — deding, — yov bitgan zamон.

Sen-la, birga ketdi bahor ham yurak,
Yomon vahimalar oldi hushimi.
Kelgach dilbar xating xayrli darak,
Umidim o'sdi-yu, tikdim ishimi.

Uni tika berdim kechalar bedor,
Qarshimda surating, tortdim qatumni.
Xayolimda sensan doim, aziz yor,
Ishqing bilan chekdim sevgim xatini.

Yozni tamom qilib sen qaytsang g'olib,
Ishqda birga tepgay bizdag'i yurak.
Seni qarshilagay quyoshday yonib,
Yo'lingga ko'z tutib men tikkim palak.

Sening dillaringga bergay ul orom,
Sevgim apmug'on bo'lur umrbod.
Mehribon qo'limming san'ati mudom
Sening ro'parangda tursa bas, men shod!

SEN QAYDASAN, YURAGIM

Qalb bo'lganda yiroqda,
Iroda ekan ojiz...
Do'stilar ham ko'p atrofda,
Ammo men yakka-yolg'iz...

Bitdan qalbim keksarib,
Qon ham qochdi yuzimdan.
Sen, sirdoshni axtarib,
Xayol ketar izingdan.

Qayga ketding, yuragim,
Biddi bardosh va toqat,
Suhbatingdir tilagim,
Dilda hasratim qat-qat.

Ko'pdir aytajak so'zim,
O'gitlaringga zormen.
Yig'laysan deb do'stilarim
Ta na qilar. Netay men?

Sovush bermaydi menga,
Yoqib ketganing olov.
Netay, yetmayman senga,
O'rta ga tashlangan g'ov.

Ishqqa maskan yuragim,
Topib ber, deb qistaydi.
Nima qijay, berahm –
Ruhim seni istaydi.

O'RIK GULLAGANDA

"Derazamning oldida bir tup,
O'rik oppoq bo'lib gulladi..."
Gulni ko'rib ishqparast qalbim,
Ming aytilgan darddan kuyladi.

Sevgi qurg'ur buncha zo'r ekan,
Hijron qo'shar ekar harorat.
O'lgudayin mushitoq bo'libman –
Visolingga, yo'q chog'i toqat.

Seni qumsab oqshom chog'ida,
Kirib keldim shu tamish uyga.
Biz bir choqlar yashagan uyda,
Tunab qoldim xayol-la birga.

Buncha issiq, buncha ham shinam,
Yoshlik kechgan torgina shu joy.
Bunda yashar ajib onlardan,
Ishq-la o'tgan tunlardan chiroy.

Har burchagi elitar hushim,
Naqadarlik oshino, yaqin.
Xuddi tunda kamolga yetgan,
Qo'shilg'ingda chaqnagan chaqin.

Bunda hayot – ilhom onlari,

Qalaminingdan to'kilgan gavhar.

Gul bo'yini olganda shamol,

Rashkka to'lib to'ngan u ko'zlar.

Sen tugatgach, chanqoqlik bilan,

O'qib maftun bo'lganim hayot.

"Qalay degan" bo'lib termulgan,

Ko'zlarining otashi hayot.

Hali hayot, takror o'qirkan,

Zavqqa to'lib yayragan ko'ksim.

Yuzingdagi ulug'vor, mayin,

Bir jahonga arzir tabassum.

Bari hayot, muhabbat kabi,

Hamma yerdä ko'rinar izing

Parrandalar nag'ma kuyida,

Jaranglaydi tovushing, sozing.

Meni o'rab oldi hayajon,

Yana ortdi sevgining kuchi.

Sharq qizarib, chiqmoqda quyosh,

Oltinlandi terakning uchi.

Sen kuylagan o'rik shu kecha,

Burkandi oq – oppoq chechakka.

Men qadrdon xotira bilan,

Jo'nab ketdim uymga yakka.

SOG'INGANDA

Qancha bo'ldi ko'rmagamingga,

Ey qalbimning dilarbi shoir!

Qancha bo'ldi birga o'ltirib,

So'zlashmadik dillarga doir.

Dil-chi, dilim unutib bo'lmas

Ishq qo'shig'i yoqilgan kitob.

Xayol xiyol chertib o'tdimi-

Topib ber deb qiladi xitob.

Ikkimizga ma'lum bir qudrat

Yillar o'ta senga tortadi.

Unutayin deymanus, faqat

Dilda uning o'ti ortadi.

Ham tabiat, ham do'st, ham raqib—

Barchasini qoldirib dog'da,

Ko'rishsagu yana tirlsa,

O'sha o'igan bo'sa dudog'da.

Yuragimning shohi deb seni,

Mayli, bu gal o'zim tiz cho'ksam.

Huzuringda baxtdan tebranib,

Ishq va sog'inch yoshini to'ksam.

FONTAN OLDIDA

Go'zal oqshom,
Oy, yulduz suzar,
Chiroqlardan olib nurini.
Salqin bog'da,
Fontan yonida
Ikki yosh qalb so'zlar sevgini.

Fontan shodlik kabi qaynaydi,
Sochiladi gavhar donalar.
Naqadar soz,
Baxtiyor zamon,
Muhabbatga yotdir nolalar,

Oy ham botdi,
Yangi tong otdi,
Hamma yoqqa nur sochdi quyosh.
Sevgi to'la,
Shod yurak bilan
Dastgohiga ketdi ikki yosh...

TINGLA, BULBUL

Bulbul sayrar, irmoq kuyular, o'ynar yel,
Hamma yoqqa nur to'lganga o'xshaydi.
Shirin kuya to'lib ketdi ma'sum dil,
Sevgi unga yor bo'lganga o'xshaydi.

-To'xta, bulbul, men kuylayin, jon bulbul,
Sen tinglagin qalbimdag'i torimni.
Bahor desam, rashk qilmasin chaman gul,
Yuragimga kirib olgan yorimni.

Men yor sevdim, ishq o'radi uymni,
Erka dilining to'qiniga quloq sol.
Sen biyronsan, lekin menin kuyimning—
Ko'rgi bo'lgan sadoqatdan saboq ol...

O'G'LIM, SIRA BO'L'MAYDI URUSH

To'lisharimi o'lkada bahor,
Quyosh kezar osmon ko'ksida.
Qalding'ochlar qanotni qoqar,
Undan soya labi ustida.

Mana, o'g'lim labi ustida
Qalding'ochning mayin qanoti.
O'spirinin toza ko'ksida,
Kunda oshar yangi his toti.

Bo'yli oshib ketib bo'yimdan,
Bosa olar ko'ksiga boshim.
Sevgim qurib bengan uyimda,
O'sdi mening katta yo'idoshim.

Yurak to'la shodlik, mehr, baxt,
Uning ko'zlariga boqaman.
Nigohiday tiniq va yorqin
Orzu to'iqnida oqaman.

Orzulari qalbimga ziynat,
Hayotidir ko'zin qorasi.
O'kinaman, ba'zida faqat,
Yonida yo'q uning otasi.

Urush! Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda,
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Ota bo'llib soldim men yo'lga,
Ota bo'llib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o'g'il o'stirgan
Bir davlatmand boy bo'llib qoldim.

Qancha ishonch, umid baxsh etar,
Ham vatanga, ham menga bu dil.
Qoya kabi yonindan chiqib,
Suyan, - deydi, - kiftunga dadil.

Men onaman, mening yuragim
Farzandiarim quvonchiga kon.
Dil orziqar, ba'zan tilagim
Vahimalar o'ragan zamon.

Yo'q, urushning nomi ham o'chsin,
Mening o'g'lim kerak hayotga.
Istamayman, uning dudlari,
Qo'nsin labi uzra qanotga.

Bas, bas ezgu onalar qalbi,
Yashay olsin bexavf, baxt bilan.
Mehnatimiz, g'azab sevgimiz
Tinchlik deydi butun xalq bilan.

Ko'krak suti va mehnat bilan,
Biz jahonga bergannmiz turmush.
Ona qalbi oyoqqqa tursa,
O'g'lim sira bo'lmaydi urush.

Yulding ota demak baxtini,
Juda murg'ak go'daklarimidan.
Yaxshi ham bor shunday Vatamin,
Dalda bo'ldi yuraklarima.

RASHK

O'itribman daryo bo'yida,
Yuragimda rashk bilan havas.
Daryo oqib borar... qo'ynida
Quyosh nuri, bahorgi nafas.

Yo'q, rashkimni qo'zg'atgan bumas!
Chunki, men ham xalq dengizida tas!
Bahor nafasim ham sezaman.
Daryo oqib yotar izida,
Men istasam jahon kezaman.

Lim-lim suvdan uzolmayman ko'z,
To'lqinlarda tirk hayajon.
Quyosh million va million yulduz
Bo'lib unga sochilgan marjon...

Tepasida uchar gala qush,
Arg'imchog'in daryoga solib.
Tog' yellari urib o'tar to'sh,
Salqinidan shaharga olib.

Yo'q, rashkimni qo'zg'atgan bumas!
Ishq va hijron olovlaridan
Omon chiqqan qaynoq dilim bor,
Men quyoshli el farzandiman,
Baxtimanki, yoniq naftas yor.

Nigoh ketar to'lqinlar bilan,
Sohillarga suq bilan qarab.
Qo'lda ketmon, bir chol daryodan
Bog'iga suv ochadi yayrab.

Kumush sochday yovilar suv ham,
Quyladi tuproq qo'yniga.
Mening qalbim rashk bo'lib shu dam
Osiladi suvning bo'yniga.

Hovuch-hovuch ichadi qizcha,
Serob bo'lib ketar tashna lab.
She'rim o'qib bir hovuch suvcha
Babra olarmikan biron qalb? -

Shu rashk meni qynar bu nafas!..



O'QUVCHIMGA

Yurak nibol olov qo'yinida
Yonar, kular, yashnardi shaydo.
Orzu, hisning sof o'yinida,
Ilk she'rilarim bo'lardi paydo.

She'ring murg'ak, lekin diling soz,
Nafasingda, dedingiz, o't bor.
Yonib kuylash shoirlilikka xos,
O'sgin, sovish bilmagin zinhor.

Bu otashni bag'rimdan olib,
Vodiylarga, gullarga berdim.
To'quvchini qo'shiqqa solib,
Quriq yerlar bag'riga kirdim.

Ishq haqiqat qudrati go'yo
Mening bilan tebratdi qalam.

O'shiqlarim bilmay g'ash, rivo,
Oshkor kuldim, oshkor chekdim g'am.

Dili shoir hassos bir elga,
Farzandligim naql etar burchim.
Xalq qalbiday bir go'zal she'rga
Yetarmikan hech qachon kuchim...

MEN CHIZOLMAGAN SURAT

Men yo'ldaman, timmagur yurak,
Yangi shodlik, qo'shiqa chanqoq.
Hamma yerni ko'mog im kerak,
Go'yo menga hamma yer mushtoq.

Qishloqlarni kezdim, borlig'im
Jarangli dam sehriga maftun,
Vatandosh, sen baxtiyorilgim,
Sensiz na ko'y, na hayot butun.

Qahramonni chaqirdim, yondan
Tovush berdi kolxozchi ayol.
Yellar yuvgan yuzida ilhom—
Men yozajak kuydan barkamol.

Oftob olgan durra, chang etik,
Dala, quyosh sahovati bu!
Ko'zi o'ta boqqan qalb yetuk
Zamon o'zi! Tashvish ham suluv!

Nurlanadi dag'al barmoqlar,
Ko'zlarida jon olar qo'shiq.
Qoniqagi yangi irmoqlar
Zamzamasin chizishga rang yo'q!

OKEANDA

Jasoratning bayoni qay rang,
Donolikning belgisi qay so'z,
Suhbatida she'r o'qiganday
Yuksalaman men ham izma-iz.

O'z baxtiday vazmin bu zotda
Parpirovchi qanot ko'raman.
Hayot o'zi, o'zi hayotda,
Men hayotni chizmak bo'laman.

Men chizaman... non, sevgi, mehnat,
Do'siday aziz ayol suratin.
Shu kamtarin, shu ulug' san'at—
Mening yurtim, mening shuhratim.

Okean, kema, qardosh, do'st,
Xurmolarda maymunlar.
Oftob suvda ming-ming ko'z,
Nurday ravshan ko'ngillar.

Tabiat etgan sehr,
Qutulmoqqa yo'q darmon.
Davrada qo'shiq, mehr,
Kimdandir sachiar gumon.

Ihom kuy boshda yalov,
To'iqlinlarda tabassum.
Sen, Vatan o'g'li, darrow,
Nedan cho'chib qolding jim?

Kulgu Kochdi yuzingdan,
Gumonga bo'iddingmi qu?
Gumon mening izimdan
Qolmas, bo'libnanki tul.

Bil, u uying, bolangedan
Olib menga bermaydi.
Bu muhabbat yo'llimas,
Dil u tuyga kirmaydi.

Sen, gumon, okeanday quch,
To'lqin bo'lib ot meni.
Tanamda qirg'oqdek kuch,
Yengib chiqaman seni.

Borligimcha qolaman,
Marhumim saqlab omon.
Dillardan joy olaman,
O'zin kemirsin gumon!

KO'KCHATOV

Ko'kchatov tavsifin qozoqdan so'rang,
Mening qalbim ko'chib, qamashdi ko'zim.
Nur makri, suv aksi, ishqday moviyrang—
Tabiat quliga aylandim shu zum.

Bu ham kam, yurakka chang solib oshkor,
Bu yer go'zalligin chiqdi shoiri.
"Ko'zgu kerak bo'sa Oynako'lni ol," — dedi.
Bunda sen ko'rmagan husning bor,—

Shu Oynako'lingning toshi bo'lay men,
"Raqqosa Qayin"lar ichra yo'qolay.
Etakdan, ki prikdan, sochdan tort, keyin
Men o'tli sehriqni qo'shiqqa solay!

Bu yerning tog'idan zamonga boqqan,
Mening ikki ko'zim naq bir juft jayron.
Mehrim qaynoq yelday yoyilib ketgan—
Ufqni sig'dirsam, siz bo'lmang hayron.

Har so'qmoq choraydi qo'shiq yo'liday,
Endi qalb kulday tinch, qilmas zamzama.
Archalarning nurga cho'ziq qo'liday,
Tashna dil har bargdan qilib kuy tama—

Sahro quyoshiday yonadi lov-lov,
So'zlar alangada qolar pishgali,
Men boqib turaman tiyrak, beayov
O'tdan omon chiqib dilga tushgali.

Bunda har dil boqar burgut siyoqli,
Tog'day arslonto'shu buloqday timiq.
Sukuti vulqonday, olov qahqahli,
Kuyi tubsiz orom, ilk ishqday yoniq.

Ho'plam qimizingning jannatday kayfi
Ming bitta bahorni yodimga soldi.
Qay qyomoq, lolangning siladi kafti,
Manglaydan umrimming izi yo'qoldi.

Oppoq qiz o'toving dilginanga xush,
Do'mbirang onamday shirin allalar.
Tanti do'st, mashinang bir kun ketsin bo'sh,
Yo u ko'lga tashla — yoursin parilar.

Olib ketma, yashil jannat qo'yndidan,
Oliy dasturxonga ming qatla uzur.
Saxiylik shohisan, bu bokira yer
Munis nafasidan olaylik huzur.

Mezbon oqinimiz tog'day turar tik,
Qiyiq ko'zlarida mayin qat'iyat,
— Mushoira kutar ovulda! — ketdik,
She'riyatga she'rxon hokimdir faqat.

Dil tashlab, dil olib men tushdim yo'lga,
Burgut siyoqlida tiniq ashk qoldi.
Qalbim nigohlari yetmagan kuya,
Yuragimni timab ajib rashk qoldi...

BULUT O'YINI

Men bulutni sevmaganman,
Qolmaganman to'rida.
Hech ajabmas ozsam dindan
Qozoq Eshik ko'lida.

Pag'a bulut izlartini
Ushlab ko'rmagandim hech.
Bunda qolsam yuzlarimi
Yuvar emish tong va kech.

Harir ro'mol bo'lib mayin,
O'ralarmish bo'yninga.
Tutqazarmish samo nayin,
Yel qanotin kuyimga.

Quyosh nurin hovuchida,
Ichiarmish chanqasam.
Kiygizarmish kamalakdan
Kamzul tikib beqasam...

Men boqaman yorqin, kibor,
Bulut kezar sarsarak.
U goh tug'yon qilgan xayol,
Goh yel chuvatgan ipak.

Ko'z oldimda atrofimda,
Kezar to'sib yer husnin.
Lablarimda, peshonanda,
Sezaman muz nafasin.

Ko'lda suzar qayiqsimon,
Kurtak uzra piyoda.
Yer sig'dirmas, quvar osmon,
Qaror topmas qiyoda.

Ko'k yetimi, pag'a bulut,
O'yiningda san'at yo'q.
Sehring agar bo'lsa unut,
Ko'k beg'ubor, tuproq to'q.

Quyosh, yulduz ruxsorini
To'smaysan ko'zimizdan,
Sen tark etsang sehring borin,
Dehqonsan o'zimizda.

Men qolmayman quchog'ingda,
Sen izimdan tushasan.
Mering'Ona tuprog'imda
Donusuv bo'lib joishasan.

Bu tuproqda yo'q yatima,
Sarsari yo'q!
Yog'ib tush!
Men qaytaman yerga – elga,
Kelguningcha xayr, xush!..

O'Y L A R ...

DARAXT

Bir daraxt turardi yo'l chekkasida,
Shamol urar edi uni muttasil.
Avval ko'k, so'ng za'far-xazon tusida,
Ko'rkin yo'qotdi... hamon urar yel.

Qurg'adi, bukchaydi kurashda tanho,
Zilol qonlaridan qolmadi zarra.
Shamol, shamol savab qo'ymadı ammo,
Ildiz-la yiqildi oxir bir zarbdan.

Endi yel bo'shilqida kezar darbadar,
Tanho qurbanining qaqshashin izlab...
Bilaman, daraxtday qulasam agar...
Mening hayat bog'im qolmas huvillab.

Igna bilan men qazib quduq,
O'sha chashma - ko'zni ochaman.
Kor qilmasa qalbimdag'i o't,
Sochin yoqib uchqun sochaman.

Otam boshi misol oq tog'dan,
Otqin suvdan yulaman qudrat.
Bu kun kanalga zor tuproqdan,
Tashnalikni olaman pudrat.

Zangor ko'kni birdan sipqarib,
Yerni kunga tutaman kaftda.
Oyga fazo tilmin sig'dirib,
Nevararamdek olaman kifga.

Xalq taqdirin bir jilg'asiday
Har insondan tilayman bahra.
Suv unutgan qum zarrasiday,
Umrim sochib, o'kinmay qatra-

Havo kesib, charchagan qushday,
Qo'nib, ko'chib, kezgum Vatanim
Va mehnatdan naq ipakqurtday,
To'xtamasman, timmasa qalbim...

BIR SAF OLCHA

Bir saf olcha gulda – naq qator gulxan,
Oq o't-la yonganda – tong husni uchar.
Ertalab boqaman: chirmab oq nurga,
Shaffof quyosh o'zi ardog'li ko'char.

Kunduzi ko'raman: harir ro'molli,
Tuy libosli safi – bir ufq, kelin.
Komsomol to'yimi, har shod ruxsori,
Ko'zguga oqarmi oshiqib, sekin?

Oqshom el tarqalib, oqganda quyosh,
Oq oltin karvoni bo'lib ko'rinur.
Gul, kelin, oq oltin – nazdimda yo'ldosh,
Bir lavha hayotdir – ziynat, non, umr...

OQSHOM

Dala. Bitdi ishlı oddiy kun,
Ovoz to'la sukul muallaq.
Bulut tarab to'q quyosh yuzin,
Atlas arqog'iday ol shafaq.

Xuddi kunning burch yumushiday,
Tarqalishar ro'zg'or boshlari.
Qanotlangan bahor qushiday,
Qayga shoshsin sevgi yoshlar!

Po'lat izday ariq labida,
Xuddi inoq o'sgan juft nihol –
Yigit va qiz. Qoni, qalbida
Tyg'yon sirdan men ochmayman fol.

Damlar, oqshom kabi shoshirmang,
Sevishganlar qolsin bir palla.
Yellar, siz dil sirin sochirmang,
Bir dam uxla, vafodor dala!

So'rib bitmay husni to'lgan kun,
Hilol chiqdi sharqda ufqqa.
Shunday: timmay dilda o't, to'lqin,
Baxt tilaymiz yangi qo'shiqqa!

Qayga shoshsin sevgi yoshlar!
Xuddi kunning burch yumushiday,
Tarqalishar ro'zg'or boshlari.
Qanotlangan bahor qushiday,
Qayga shoshsin sevgi yoshlar!

EMISH

Emish: shuhrat o'rab kemtik qismatim,
Ko'zlardan uzoqda sirqirab oqar.
Qalbda qo'reg'oshinday yotib hasratim,
Ko'zlarim jahonga baxtiyor boqar.

Emish: hayot menga ayol baxtidan
To'liq kosasini ko'rmapti loyiq.
Lekin qalbim to'kk'an she'r shuhratidan
Baxtli ayol dermish meni xaloyiq...

Tanda qurq'oshin-la yurganlar ozni?

Ujangchi tanida, ayol dildi
Qariyb chorak asr zanglamay yotar,
Baxting ming jilosin bergen elida.
Har bir jon jahonga tole yor boqar.

Limmo-lim qismatiga bo'limganlar yor,
Kemtiklik hasratin bilarmi dardin!
Qalbni bezab ketgan ishqda zo'r baxt bor,
Yurak unutarmi oltin damlarin?

Ayol baxti!

Menday ayol baxtiga
Taqdir malikani ko'rganmi loyiq?
Xalq mehrida, yorman el shuhratiga,
Baxtli ayol desa haqli xaloyiq...

TUN

O'zga yurtda buncha qorong'u,
Uzun buncha tun?
Yulduz qator chirog'lar yog'du
To'kmasni men-chun?

"Hayrli kech" tilab mezbonlar
Ketar yo'liga,
Topshirishib meni serardog'
Xonam qo'figa.

Shu xonada tunash ham burchim,
Yot yurtda tano,
Lekin mudom buyuk tayanchim,
Yurtim naq ziyo-

O'rar meni yorqin og'ushday,
Qopong'u tunda,
Uyasida sayragan qushday,
Yozaman shunda.

Yozganimni ming sirga to'liq,
Yot tun o'qirmi?
O'z tilida sho'x yoki so'niq
Qo'shiq to'qirmi?

O'qiy bersin, hammasi aniq
Satrlarimda.
Chunki shunday muhabbat yoniq
Tomirlarimda.

BOG'ON

Bog'bon gulzorida,
Bor dunyo unut,
O'lida gulqaychi.
Tesha belbog'da,
Daraxt bor,
Bulturgi xas,
Bu yilgi o't.

Kapalak, yel, quyosh,
Qurt ham bor bog'da.
Biri ozuq gulga,
Birisi husn.

Biri atir berar,
Boshqa biri – rang.
Biri kemiradi hayot tomirin.
Bog'bon biridan shod.

Biridan tajang,
Tesha bilan patak ildizni qirqdi,
Qurt, chiqitdan forig' etdi tuproqni.
Haykaltarosh didi.

Cho'ng ota mehri,
Bilan oraladi qayta gulbog'ni.
Oraladi...
Keyin ochilgan guldan.

Tanlab-tanlab qirqdi serzavq, serayov.
Uzoq-yaqin tutib qildi tomosha.
Gul yoqt, nuqra, dur – yonar naq olov...
Bog'bon supa uzra qiyig'in yozib.

Bir og'ush chamanni taratdi asta.
Ko'rdi. Tanlamadan noyobin olib,
Kelinga tutguday qildi guldasta.
Chog'i, keksa hassos mehnatidan shod.

Bog'dan chiqdi.
Yurish – raqs tushgan misol.
Mehnat mehri, san'at va gulzorining
Tuhfasi tutganga kelmagay malol.

B A L K I

KO'ZLARI SUZUK

Ko'zingda chaqmoqqa o'xhash o'tli nam,
Ranging siniqishi, lab titrashi sir.
Balki, hisni bo'g'ib, irodangga jum
Yolvorasan, ko'ch ber, bo'lmay deb asi?

Ko'mib yubormoqchi sen gul yoshliging,
U – faqat yashnashga qodir tabiat.
Balki, baxt bekasi atagan kishing—
Ruhi ham istamas xazoning bevaqt?

Bilasan, daraxtni sindirar bo'ron,
Nihol bo'lsa, yana o'sar gurkirab.
Balki, yo'q ta'nalar, andisha, gumanon,
Baxga haqqing yutar, diling zirqirab?

Yarim taqdir go'yo siniq ko'zgumish,
Hayot taqozosi baxt bekamlikdir.
Balki, to'qqiz gulning bilmasdan so'iish,
Pok hisning amriga kirmak kerakdir?

To'lqin aro yayvardi ayol,
Tushib ketdi dengizga uzuk.
Dovul kabi bosib ming xayol,
Tahlikada ko'zleri suzuk.

Baliq kabi muzlab tanasi,
Tubni tintgan ko'zlar jiqlqa yosh.
Emish: erin to'ng'ich hadyasi,
Sevgi ramzi, emish, unda tosh.

Mana ko'z-ko'z qilgani hayot,
Erka baxti sirtildi qo'ldan.
Qarab turib oldilar, nahot,
Sevgi shunday botar to'lqinda?

Tubda, uzuk uzra ming to'lqin
Tosh, qumlar-la o'ynar beparvo.
Ayol sevgi ramziga tutqun
Yalt etgan tosh, chig'anq go'yo —

Uzuk bo'lib tortadi tubga,
Chag'alayday sho'ng'iydi juvon...
Uzugini oqim qutbga
Olib ketsa, quvguday shu on.

Oppoq barmoq qolib yalang'och,
Solar dilga foje vahima.
Gumbirlaydi to'lqin baxga och,
Zarbasidan go'yo tan qiyma—

Kechib tizma tog' to'lqinlarin,
Qidiradi ayol uzukni...
Uyda eri sanab kunlarni,
Sog'inadi ko'zi suzukni...



MUHABBAT – BU...

O'zin olov kuchidan quyosh,
Xabar berib chiqar osmonga.
Va nuridan quyosh-la teng yosh,
Borliq to'lar yangi kamolga.

Muhabbat ham... qadimgi otash.
Dilga tushib yangi o't yoqar.
Halovating, tinching ko'rib g'ash,
Birdan borin shu o'tga otar.

Sen qidirib topmading uni,
Yo'llariga qo'yamading tuzoq.
Band etmaydi hech kimning husni,
O'zi chiroy bo'ladi biroq—

Axtarganga topilmas gavhar,
Jar solishni yoqtirmas hassos.
Cho'l guliday chidamlilarga,
Sadoqatlari, soflikka meros.

Hech kim bilmas unga qay so'qmoq,
Muyulishda duch kelar odam.
Bahorning qay gulidan kutmoq—
Yo qish bilan kelib u hamdam.

Muz jismidan harorat olib,
Seni yoqib qilar tomosha?
Dowul ichra girdobda qolib,
Uchsang mumkin fazolar osha.

Shu damgacha o'ragan atrof,
Qudrat, ko'ki solar hayratga.
Qalb zaiflik, qo'rqaqlikka yot,
Aylanasan ezgu g'ayratga.

Va istaysan sen ham yarqirab,
Shu hayotga bo'isang yarashiq.
Jahon ichra bir seni tanlab.
Izing, yo'ling bo'lib qoldi ishq.

Ishchi bo'lsang butun zavodni
Ko'tarishga qodir sezasan.
Dehqon bo'isang dala, uvatni
Kuya solib, tolmay kezasan.

Sevgi nomli ajib boylikday,
Senga aziz gul, tikan, kun, tun.
Ruhingdagi erkatoylikdan
Yengil ko'char har qanday mushkul.

Sen tok emas — ikki torli soz,
Birovga jon sening hayoting.
Qo'sh qanot-la qilasan parvoz,
Boshqa tanda bitta qanoting.

Ikki qanot orasida goh
Dengiz yotib, tog'lar cho'kadi.
Masofa hech! Sen juft, yonna-yon,
Hisni na tog', na suv to'sadi.

Qosh-ko'zdan ham yaqinroq, so'qmoq
Ko'rsang dengiz uzra muallaq,
Suzmasliging sen unutiboaq,
Tashlanasan va bo'lmaysan g'arq.

Bo'ronlarning ustidan yurib,
Guldurakka solasan chaqin.
Kamalakdan nur ko'prik qurib,
Visolini qilasan yaqin.

Mushkul baxtni yayrab, ardoqlab,
Muqaddasday tutasan qo'lda.
Yuz yil sevib, bo'sang ham serob,
Sen tashnasan suszang ham ko'lda.

Afsus, taqdir saxiymas har vaqt,
Hamningami mangu baxt jig'a?
Xiyonat yo hijrondan karaxt
To'lq'anasan misli o't jilg'a.

Qalbga xuddi bolg'a tushganday
Tongga, tunga kirasan tikka:
O'tda titrab, yonasan muzda,
Urinasan dunyoga sig'may,
O'xshab qafasdag'i kaklikka.

Yonib o'zi, o't tushgan uydan
Farzandini qutqargan misol,
Tashlanaсан himoyasiga.
Yo baxtisan, yo baxting zavol.

Yo sen sevgan kishi qalbi muz,
Sukutida o'ting yutilur.
Sen yommaidan topasan huzur,
Sabring burda-burda so'kilur.

Otashzada yurakning ko'zi,
Yo'qliklardan oladi topib,
Sevgiga yot so'zlarining bari,
Uchar ishqing o'tida qolib.

Hosil uzra yoqqan do'l kabi
Yog'ar ba'zan boshga malomat.
Ishq-chi, bahor guyohi kabi,
Avj oladi, topar kamolot.

Mushkul sevgi ko'targan tog'dan
Sen boqasan mag'fur burgutday,
Ozor, ryo qolar oyoqda,
Tunga tashlab ketilgan tushday.

Sening ishqqa oshno yuraging,
Alangaga urar tuyg'usin.
Sevgi, shodlik, iztirob dardi
O'guningcha davlat va husn.

Shunday sevgi — Mushkul saodat,
Tabiatning nodir tuhfasi.
U betakror, beteng, beodat,
Bir umrga kifoya fasl...

SHALOLA

Mehnat bergen oltin shodlikday,
Otilib toshadi shalola.
Shovqini ilhomdan yorliqday,
Yurakda ko'tarar tarona.

Qaynaydi o'zligin yo'qotib,
To'zitar osmonga kumush chang.
Qir'oqqa to'lqindan tosh otib,
Go'yo u erk uchun qilar jang.

Borliqni tutadi gulduros,
Hammani chulg'aydi ezzilik.
Qishdan muz olgандай о'ч, qasos
Hayotbaxsh kuch bo'lib kezgudek.

Bu kuchga tang qolib oftob,
Tashlaydi kamalak yoyini.
Qulaydi shalola sershitob,
Axtarib kanal-u soyini.

Yugutar yashinday, chaqmoqday,
Axtarar kanal, soy, nahri,
Baxtiyor, yoyilar qaymoqday,
Topganda tashna lab bag'irni.

Naq shunday:
Umri etib bog',
Oqasan kuy-nahrim, ko'krakdan,
Farzandim, she'rginam, bor tezraq,
Makon qur eng toza yurakda...

SHABBODA

Shabboda men seni ko'rmayman,
Qo'limga tutmayman,
Jamoling ne taxlit, so'rmayman,
Javobing ko'imayman.

Tanimni siyapagan qo'lingni,
Qo'iga bir olmadim.
Bemisol muloyin kulgingni,
Qo'shiqqa solmadim.

Minnatsiz oroming misli jon,
Tasalli sezaman.
Tasifing tasvirlay deb har on,
Rang izlab kezaman.

Sen nahot raqqosa parvozi,
Yo qushning havasi?
Sen nahot kurtakning ovozi,
Yo maysa nafasi?

Suvlarning quyoshega cho'zilgan,
Ming harir qo'limi?
Yulduzning tuproqqa intilgan,
U nurli yo'limi?

Yo sevgi nurlatgan yurakning,
Jilvasi bo'igan kuy?
Ko'krakka tamshangan go'dakning,
Og'zidan anqir bo'y?

O'ZIMGA

Yo pag'a bulutning bebardosh,
Uzilgan eragi,
Yo keksa bahorning mudom yosh
Sehrli ertagi?

Yaproqni o'ynatib o'tgan kuch
Senmasmi, shabboda?
G'uncha lab ochmasmi sen-la duch
Eng ezgu asnoda?

Chirmab ol, kel, butun jussamni,
Eng saxiy, keng quchoq!
Surating chizmagan esam-da,
Qalbimda ochding bog'!

Nega jumib qolding, xasta mung'ayib,
O'zingni urasan yakkash to'shakka.
Nega, kelib-kelib endi, naq g'arib,
Kurashda yengmoqchi bo'lasan yakka?

Qani zukko xislat – iroda, g'yypyp,
Do'l, bo'ron, hijronlar o'ta kulgan kuch.
Qani o't bulog'i, ko'zingdagi nur,
Ziqlik, xafaqonlik qaydan keldi duch?

Yillar o'tgan bo'lsa, undan nariga,
Kinda muqim qolnish o'n sakkiz yoshi.
Katta taqdiringda o'tgan kunlarga
Takror zeb bergaydir hayot naqqoshi.

Uzoq yo'ida kim ham qolmaydi tolib,
Bir dam do'st qatida hordiq chiqargin.
Mehringga cho'zilgan dil bo'lsa olib,
Eng yorqin yo'llarga solib yuborgin.

Kel, kuysiz yurakka qo'shiq bag'ishlab,
Kulgisiz lablarga o'rgat tabassum.
Baxting soch, dard bo'lsa tishingga tishlab,
Yenga olsang yengu bo'lma hech taslim.

Faqat seni toshday tortgan kunjakdan,
Qalamingga muhtoj dunyoga otil.
E Hakim! Davo top toshdan, chechakdan
Xuddomi, tabiat barin et xiji.

OYDINDA

Bor vujudi hayot, iltijo bu jon,
Sendan ishlariga tilaydi umr.
Atomni, jonnormi yo bo'm-bo'shi osmon
Changalidan unga bir shifo undir...

Sen o'zing jim yotma, bu keng dunyoda
Hali ko'rar shodlik, qilar ishing ko'p.
Qit'adan qit'aga kezding piyoda,
Xotirang qudug'in qazish kerak xo'p.

Demak yashash kerak, lanjikni unut,
Daryo kabi uyg'oq hayotga otil.
Eng nodir qo'shig'ing zar baridan tut,
U menda! – deb chorlar oldda qancha yil.

Charx to'lganda oy ko'kda
Bog'chada bo'lganmisiz?
Nim moviy shula kaftda
Dunyoni ko'rgannisiz?

Jilib-jilmas to'lin oy,
Bulut xayolday yengil,
Oy anhorda qulun toy,
Gilosda shig'il-shig'il.

Yaxlit oynaday bo'llib,
Hovuzga yoyilgan u.
Egilsam – tubdan to'lib,
O'zim chiqdim ro'baro'.

Atrofim to'la saf-saf,
Ming-ming yulduz ora man.
Barin sidirg'a chayqab,
Yerga sudrab boraman.

Yerda novda, gul, barglar –
Aksi kashta singari.
Sel unutgan ko'lmaklar
Misli oyning singani –

Yonadi parcha-parcha...
Shabnam naq yel sochgan cho'g',
Har nurda shodlik qancha,
Har soya sirga to'lig'.

Sayhonlar naq nur maydon,
Uyquda barcha tovush.
Inida uxlar nodon,
Latofatni sezmas qush.

SOG'INIB

O'zinga tashlayman ko'z:
Ko'ksim, qo'llimda shula.
Osmonga tutaman yuz,
Yel silar yog'du qo'l-la.

Eh, umr yarmin yutib
O'igan tunlardami ayb?
Endi bu ko'rknii tutib,
Kunduzga bermasam hayfl

* * *

"To'rga tashrif!" ... deysiz, joy ne gap,

Yurak, fikr, mehr oldida,
Bilasiz-ku, dillar dil talab,
Yurtlar oshar diyordi dardida.

Do'st nigohda ko'rsam o'zimni,
Malikaday to'rda sezaman.
Bir oftob silab ko'zimni,
Baxtlar vodysisida kezaman.

Itifotli dillar taftidan,
Ilhom qaynar misoli buloq
She'riyatning yorqin taxtida,
Ko'rinishdan baxt bormi zo'rroq?

Shu kurnarda bahorga zorman,
Shaffof, yorqin kuy tilar ko'ngul,
Yaxshiyamki, qalang'a yorman,
So'zlab turar bor dilimi ul.

Shu kurnarda bahorga zorman,
O'z bahorim kabi bemissol,
Bahor qaytmas, yonuvchi qorman,
Yo no'noq qo'l butagan nihol.

Shu kurnarda bahorga zorman...

MENING TONGIM

Ona tuproq oromda yotar,
Olib tungi rizqu quadratiri.
Mening tongim qalbimda otar,
O'ydani, ko'zdan haydab zulmatni.

Tundan tongni uzib olaman,
Katta bo'lsin deb ishlì kunim.
Qog'oz uzra sahar yoyaman,
Bag'ishlayman umriga qo'nim:

Oy qoldirgan momiq izlarni,
Ko'chiraman she'rim satriga.
Isitmovichi sho'x yulduzlarini
Payvandlayman yerning taftiga.

Olov chehra qizlar qatida
Baxt to'qishga beraman farmon.
Toki yashhab inson vaqtida,
Quyoshga tik, boqsin bizsimon.

Mening tongim boshlanar tundan,
Kuzataman g'uncha kulishin.
Tog' ortida boshlanar kundan
Yaproqlarda shabnam so'nishin.

Siyenay oq tong uyg'onishi
Husniga yo'q kunduzda qiyos.
Sahar bedor, qushning xonishi,
Ajib shodlik, yoniq eltiros.

Qay uydadir yig'ladi go'dak,
- Ber, onasi, xushbuy ko'krakni!
Unga temir qanotlar kerak,
Tark etmак-chun bu tor yo'rgakni!

Uzoq-yaqin derrazalarda
Birin-ketin yonadi chiroq.
Shoshqin qadam, kuy, pardalarda
Yangi tongga kiradi tuproq.

Tundan yulgan tongim:
Goh bir she'r,
Goh o'qilgan bir kitob bo'lur,
Sahifasiga bo'm-bo'sh bob bulur..

Qay uydadir yig'ladi go'dak,
- Ber, onasi, xushbuy ko'krakni!
Unga temir qanotlar kerak,
Tark etmак-chun bu tor yo'rgakni!

HAYKAL

Bu yerda shoirga qo'yildi haykal,
Inson zakovati, aqli, mehrı bu!
Keksa tabiatga berilgan sayqal,
She'riyat qudrati, san'at sehri bu.

Boq, deb', quyosh, yulduz, tog', dalalarga,
O'lin yiqitganini ko'tardi xalqi.
Endi men ham farzand, nevaralarga,
Ko'rsata olaman tog'dek tik qaddin.

Ana, yuzda ilhom, qo'lida qog'oz,
Hozir vodiy kezib qo'shiq bitguday,
So'zlariga qayta bergancha parvoz,
Hayot-chun ta'zimni doston etguday.

Assalom! Ayt, kimga boshimni egay,
Kimlarning qo'lini surtay ko'zimga?!
Chorak asr o'ta kelib tirikday,
Boqib turganining-chun so'lg'in yuzimga.

Qancha bizga seni qo'ymasdan yaqin,
O'rtamizda yotgan hijron toshini—
Olib tashlab; seni go'yo bir chaqin,
Go'yo non, go'yo suv, she'rday, yorqin

Durday ko'tardilar aziz boshingni.

Bir ulkan qalbdaysan, mard, alp siyoqli,
Yillar qaritmapti, hamon ko'rkam, yosh,
Qancha ko'maganing tirik hayotni
Yozib har yurakka solguday quyosh.

Bu — kaftda ko'targan yashnagan tuproq,
Sening nomingdagi kolxozi atalur.
Bunda she'rday mehnat talab har chanoq,
Har kun yangi shodlik, baxt yaratilur.

Sen bunda mehmonmas, aziz farzandsan,
Safarbar sur'atga tirik emakdosh,
Qancha jild va qancha minglab varaqdan
Chiqib, ter to'kasан — dehqonga yo'ldosh.

Seni bir ko'rmagan, eshitmagan ham
Bunda sensiz shonin etmaydi bayon,
Shuhratni o'ylamay, tebrangan qalam,
Avlodga xizmatdan qolmas hech qachon.

Mag'rur ko'tarilding boshoqday o'sib,
Sen bilan safimiz yana zich, azim.
Mangulik-chun taqdir, she'rimni tutib,
Xalqingga va senga qilaman ta'zim.

XUSUMAT

Uyqu o'mrab olib tuproqni,
Tanho hokim bo'lib yuribdi.
Lekin ko'zimdagi chiroqni
O'chirolmay zaif turibdi.

...

Isnga solib butun hunarin,
Hamma yoqqa sochdi sukunat.
Barcha tovush, barcha nurlarin,
Barcha keki, barcha xusumat—

...

Zulmatini ustimga o'yib,
Bardoshinga boqadi hayron.
Ko'rpalarni bigizday o'yib,
Men etaman qurganin vayron.

...

U bir o'zi qilar tomosha,
Kunduzlardan yashirganimi,
Goh alamim kipriklar osha
Qor'ig'oshinday toshurganimi...

SUQ

O'tgan kunlaringa kelar suq, havasim,
U — mening quyoshtay yoshligim.
O'tgan tunlaringa kelar suq, havasim,
U — oydin shodik, beboshligm.

...

Dumbullik, jamol ham, bokira xayol ham,
O'ktamlilik, erkilik, jasorat.
Sevgidan mastlik ham, hijrondan behol dam,
G'aflatdan vayronlik, qanoat.

...

Dolg'ali tuyg'ular olovli to'lqini,
Xilvatlab yetaklab yurganda,
Qomingning, qalbingning baxtiyor shovqini
Aqliningni kishanlab turganda;

...

Ostobni xiralab, quyoshtay kulgan on,
